2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 232 (1293), 2024-yil 15-noyabr, juma

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

AHOLI SALOMATLIGINI SAQLASH DAVLATIMIZ IJTIMOIY SIYOSATINING ENG MUHIM YO‘NALISHLARIDAN BIRIDIR

Prezident Shavkat Mirziyoyev 14-noyabr kuni kasalliklarni erta aniqlash va samarali davolashga oid takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Davlatimizning ijtimoiy siyosatida sog‘liqni saqlash sohasi katta o‘rin egallaydi. So‘nggi yetti yilda bu tizimga ajratilayotgan mablag‘lar 6 karra oshirilgan. Oldin faqat Toshkentda bajarilgan 400 dan ortiq yuqori texnologik amaliyotlar bugun viloyat va tumanlarda ham o‘tkazilyapti.

Kasalliklarni erta aniqlash maqsadida onkologiya, endokrinologiya, kardiologiya markazlari hududlarda skrining tekshiruvlari olib boryapti. Masalan, 1 million 700 ming nafar ayol skrining qilinib, 49 mingida saraton oldi kasalliklari topilgan. Bu yil yarim yillikda 122 ming nafar aholida yurak qon-tomir va qandli diabet erta bosqichda aniqlangan.

Aholi salomatligini saqlash — uzluksiz jarayon. Sohadagi tahlil va talabdan kelib chiqib, muhim yo‘nalishlar bo‘yicha takliflar tayyorlangan. Taqdimotda shular haqida so‘z bordi.

Ma’lumki, davolashdagi eng katta muammo — kasallikning kech yuzaga chiqishi. Shu bois, Prezidentimiz tashabbusi bilan Qashqadaryoda, tajriba tariqasida, onkologiya bo‘yicha har bir erta aniqlangan holat uchun tibbiyot brigadalariga 2 million so‘mdan mukofot berish joriy qilindi. Natijada oilaviy shifokorlar o‘z mahallasidagi 51 nafar ayol va bolalarda shunday belgilarni aniqladi. Buning uchun 102 million so‘m mukofot puli berilib, kech bosqichda sarflanadigan 8 milliard so‘m mablag‘ tejalgan.

Tahlillarga ko‘ra, jami onkologik kasalliklarning o‘rtacha 20-25 foizi ayollardagi ko‘krak bezi va bachadon saratoniga to‘g‘ri keladi. Shu bois, bu borada skrininglarni kengaytirish va ularning reyestrini yuritish rejalashtirilmoqda.

Shuningdek, gematologiya, kardiologiya, endokrinologiya kasalliklarini erta aniqlash va ularni davolash bo‘yicha uch yillik dasturlar bu yil yakuniga yetadi. Mutasaddilarga erishilgan natijalarni hisob-kitob qilib, ularning muddatini uzaytirish bo‘yicha ko‘rsatma berildi.

Tibbiyot muassasalariga markazlashgan holda dorilar xarid qilishda ham kamchiliklar bor. Ba’zi shifoxonalarda talabga nisbatan kam olingan bo‘lsa, ba’zilarida dorilar ortib qolgan.

Shu bois, dori vositalari va tibbiy buyumlarni o‘n besh oylik talab asosida xarid qilish tizimi taklif etilmoqda. Bunda kelgusi yillar uchun ehtiyojlar 1-avgustdan kechikmasdan, Davlat budjeti parametrlari bilan bir vaqtda shakllantiriladi.

Shuningdek, Sog‘liqni saqlash vazirligi huzurida “Xaridlar markazi” va uning 13 ta hududiy filiali tashkil qilinadi. Markazga 2025-yil 1-yanvardan boshlab, original dori vositalari va yopiq turdagi laborator uskunalar uchun sarflov vositalarini bevosita ishlab chiqaruvchidan to‘g‘ridan to‘g‘ri xarid qilishga ruxsat beriladi.

Yana bir taklifga ko‘ra, donorlarni qo‘llab-quvvatlash kengaytiriladi. Jumladan, “O‘zbekiston Respublikasi faxriy donori” ko‘krak nishoni olganlarga bir yo‘la beriladigan pul mukofoti bazaviy hisoblash miqdorini 5 baravaridan 15 baravarigacha oshiriladi. Ularga jamoat transportidan bepul foydalanish huquqi beriladi, davlat sihatgohlarida davolanish navbatsiz bo‘ladi.

Ushbu yangi tizim kelgusi yil 1-yanvardan joriy qilinishi belgilandi.

Mamlakatimizda sanitariya va fitosanitariya choralari bo‘yicha Jahon savdo tashkilotini xabardor qilish tartibini yo‘lga qo‘yish masalasi ham ko‘rib chiqildi.

O‘zA

Yangi O‘zbekiston ruhi

UMUMIY FAROVONLIK VA TARAQQIYOT YO‘LIDA DOIMO TAYYORLIK

BU YANGI O‘ZBEKISTONNING BASHARIYAT TAQDIRIGA DAXLDOR TASHABBUSLARIDA O‘Z AKSINI TOPMOQDA

O‘tayotgan hafta o‘zgarayotgan dunyo tashvishlari muhokamasi bilan to‘lib-toshdi. Insoniyatni behad tashvishga solib kelayotgan muammolar yechimiga qaratilgan takliflar, tashabbus va g‘oyalar, davlat va hukumat rahbarlari oliy darajasidagi uchrashuvlar ruhi dunyo jamoatchiligi e’tiborini Ar-Riyod (Saudiya Arabistoni) va Boku (Ozarbayjon) shaharlariga qaratdi.

11-noyabr kuni Ar-Riyod shahrida Falastin muammosiga bag‘ishlangan navbatdan tashqari arab-islom sammiti bo‘lib o‘tdi.

Sammitda Prezidentimiz ham ishtirok etib, Falastin — Isroil muammosini tinchlik va diplomatiya yo‘li bilan hal etishga qaratilgan barcha amaliy tashabbuslarni to‘liq qo‘llab-quvvatladi.

Davlatimiz rahbari shu kunning o‘zida Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevning taklifiga binoan amaliy tashrif bilan Boku shahriga keldi.

12-13-noyabr kunlari Boku shahrida BMTning Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi hadli konvensiyasi Tomonlari konferensiyasining 29-sessiyasi (COP29) doirasidagi Jahon yetakchilari sammiti bo‘lib o‘tdi.

Ana shu dunyoviy sammitda ishtirok etgan Prezidentimiz mamlakatlar liderlari ichida eng faol ishtirok etgan va eng ko‘p uchrashuvlar o‘tkazgan davlat rahbari sifatida e’tibor qozondi.

Shavkat Mirziyoyev konferensiyadagi nutqida beshta muhim taklif va tashabbusni bildirdi.

Birinchidan — rivojlanayotgan mamlakatlarga iqlim xatarlarini aniqlash uchun yetakchi davlatlar va xalqaro institutlarning texnik ko‘magini kengaytirish dolzarbligi qayd etildi.

“Bu borada iqlim tufayli yo‘qotish va zararlarni baholash bo‘yicha xalqaro markaz ta’sis etishni taklif qilamiz”, dedi davlatimiz rahbari.

Davomi 3-betda

SUV SARFI RAQAMLASHMAS EKAN,

MUAMMO KO‘PAYIB BORAVERADI

Munosabat

Suv — hayot, salomatlik, oziq-ovqat, energiya va atrof-muhit uchun eng muhim resurs. Bozorlarimiz to‘kinligi, dasturxonimizning turli noz-ne’matlarga to‘laligi, oziq-ovqat ta’minoti barqarorligi bevosita ushbu ne’matga bog‘liq. Shuning uchun bugun suvga bo‘lgan talab va ehtiyoj har qachongidan ortib bormoqda. Natijada butun dunyoda suv tanqisligi kuzatilyapti.

Ma’lumotlarga ko‘ra, Markaziy Osiyoning ayrim hududlarida 2040-yilga borib, suv resurslariga talab uch barobar oshadi. Vaqt o‘tishi bilan iqtisodiy zarar yalpi mintaqaviy mahsulotning 11 foiziga yetishi kutilyapti. Vaqtida ta’sirchan choralar ko‘rilmasa, suv taqchilligi oqibati hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka jiddiy putur yetkazishi mumkin.

Suv tanqisligi tobora kuchayayotgan bugungi kunda mamlakatimizda obihayotni qadrlash, tejab foydalanishga alohida e’tibor qaratilayotgani sababi ham shunda. Xususan, so‘nggi yillarda 472 ming gektar yer tomchilatib va 48 ming gektar yer yomg‘irlatib sug‘orishga o‘tkazildi, 97 ming gektar maydonda boshqa suv tejovchi texnologiyalar joriy qilindi.

Davomi 4-betda

O‘ZBEKNING MA’NAVIY INQILOBI

Yurt va xalq istiqboli yo‘lida QANDAY BIRLASHILADI?

Nuqtayi nazar

Taraqqiyot jamiyat a’zolari dunyoqarashi, olam va odamga munosabatlari zaminida maydonga keladigan hodisalarni o‘z ichiga oladi. Yangi asr o‘zbek jamiyati o‘z istiqbolini belgilab olishi uchun ijtimoiy sohaning barcha jabhalarida jiddiy islohotlarni amalga oshirishga kirishganini bugun dunyo hamjamiyati ko‘rib turibdi. Prezidentimizning siyosiy irodasi va tashabbusi bilan O‘zbekistonda xususiy sektorni rivojlantirish siyosati qo‘llab-quvvatlanishi boshqa sohalar singari ta’lim tizimida ham jiddiy islohotlarning dunyo yuzini ko‘rishiga sabab bo‘ldi.

Bugun xususiy bog‘chalar tashkil etilishi bolalarimizda go‘daklik chog‘laridan dunyoni anglashning eng ilg‘or metodlariga asoslangan tarbiya jarayoni shakllanishiga sabab bo‘lgan bo‘lsa, xususiy maktablardagi ta’lim-tarbiya tizimi davlat ta’lim muassasalarinikidan qolishmayotgani, ayrim hollarda samarali natijalarni qo‘lga kiritayotgani quvonarli hol.

Davomi 5-betda

Bugunning gapi

YOQILSA – ZAHAR, ko‘milsa – ozuqa

4

Toshoyna

SHAXS TARBIYASI SARI...

Odatga aylanayotgan illatlar, omadini kutayotgan tavakkalchilik

6

Mahalla chin ma’noda xalqning suyanchig‘i, maslakdoshi sifatida kundalik hayotdagi o‘rnini mustahkamlab bormoqda. Buni obod va farovon mahallalarda fayziyob yashayotgan yaxshilar hayot tarzi ko‘rsatib turibdi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 15-noyabr, 232-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

Obod manzillar

QOSHQAYRON – HECH KIM O‘Z HOLIGA TASHLAB QO‘YILMAYDIGAN MEHR VA OQIBAT MASKANI

“Otang ham, onang ham mahalla”, degan ibora bor. Asrlar davomida shakllangan bu hayot haqiqati zamirida hamjihatlik, bir-biriga suyanchiq bo‘lish, kattalarni e’zozlash, kichiklarga hurmat, ta’lim-tarbiya, sabr-bardosh kabi ezgu fazilatlar mujassam. Og‘irimiz, yengilimizda ham mahalla yordamga keladi.

Rishton tumanidagi “Qoshqayron” mahalla fuqarolar yig‘inida “mahalla yettiligi” tomonidan amalga oshirilgan ishlar ko‘lamiga nazar solgan kishi fayzli maskandagi o‘ziga xos ish tajribalari, farovonlik, mehr-saxovat amallarining bevosita guvohi bo‘ladi.

> **Aytishlaricha, avvallari bu yerdan yettita ariq oqib o‘tgan ekan. “Qayron” fors tilida “ilon izi” ma’nosini anglatib, aholi ana shu suv yo‘li qirg‘og‘ida qo‘nim topgani bois, bu joylar “Qoshqayron” deb nomlangan. Qadimgi suv yo‘llari turli taloto‘plar sabab yo‘q bo‘lib ketgan bo‘lsa-da, bu nom hanuzga qadar obodlik, farovonlik, to‘kinlik timsoli o‘laroq tillarda doston.**

Mahalla fuqarolar yig‘inida 2200 dan ziyod aholi istiqomat qiladi. Ko‘hna qishloq kundan kunga obodlikka yuz tutmoqda. To‘kin dasturxon, shinam uy-joylar aholi farovonligi mahsuli, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Mahallada bog‘dorchilik rivojlandi. Bugungi kunda 350 gektardan ortiq o‘rikzor bog‘barpo etildi. Rishtonda mashhur “subhoni” va “qandak” navli o‘riklarni yetishtirish, quritish, qayta ishlashda qoshqayronliklar oldiga tushadigani kam. Har yili o‘rtacha 500 tonnadan ortiq o‘rik turshagi ichki va tashqi bozorga chiqarilmoqda. Xitoyga ham Qoshqayron o‘riklari yetib borgani haqida ma’lumotlar bor.

Mahalla fuqarolar yig‘iniga shu yerda o‘sib-ulg‘aygan Dilmurod Hamroyev rahbarlik qilib kelmoqda. Ularining hayot tarzi, ish amallari, muammolari unga begona emas.

— Bugungi mahalla fuqarolar yig‘ini faoliyatini avvalgi tuzilma bilan qiyoslab bo‘lmaydi, — deydi rais. — Ayniqsa, “mahalla yettiligi” faoliyati yo‘lga qo‘yilgach, aholi bilan manzilli ishlash tizimi yangi bosqichga chiqdi. Har bir masala va muammoni joyiga chiqib o‘rganish, amaliy yechimlarni hamjihatlikda topishga e’tibor qaratyapmiz. Yaqingacha mahallaga shu yerda yashayotganimiz haqidagi ma’lumotnoma olish uchun kelganmiz, xolos. Chunki uning vakolatida bundan boshqa imkoniyat yo‘q edi. Endi mahalla tavsiyasi, qo‘llab-quvvatlashi bilan odamlarga pul, asbob-uskuna, xomashyo berilyapti. Bunday imkoniyat hech qachon bo‘lmagan. Yil boshidan buyon oilaviy tadbirkorlik qilmoqchi bo‘lgan 35 nafar ishsiz tashabbuskorga 453 million so‘m imtiyozli kredit olib berildi. Mahallamizda xorijda yurgan 121 migrant ro‘yxatga olingan edi. Bugunga qadar ularning aksariyati oilalari bag‘riga qaytdi. Ularga “Sayxunobod” tajribasi asosida “Biznesga bir qadam” dasturi yo‘nalishida tomorqachilik, chorvachilik, hunarmandlik va boshqa sohalar uchun 825 million so‘m imtiyozli kredit berildi.

Ravshan To‘xtarov migratsiyadan qaytgan yoshlardan. Unga yetti yillik imtiyozli kredit asosida 4 sotix issiqxona qurib berishga ko‘maklashildi. Erta ko‘klamdagi bu loyiha oddiy oila hayot tarziga qut-baraka, farovonlik olib keldi.

— Xorijda issiqxonada sabzavot yetishtirish bilan mashg‘ul bo‘lganmiz, — deydi Ravshan. — Har qancha mehnat qilsak-da, samarasini boshqalar ko‘rardi. Oilam, mahalla faollari qo‘ng‘iroq qilib, tomorqada issiqxona qurish uchun imtiyoz va imkoniyatlar berilayotganini aytgandi, ikkilanmay ortga qaytdim. Issiqxonada ertaki bodring va pomidor yetishtirdik, gulchilik tarmog‘ini tashkil qilganmiz. Ayni kunda uchinchi hosilni bozorga chiqaryapmiz. Ekindan bo‘shagan maydonlarga peshma-pesh sabzavot ekamiz. Eng muhimi, yaqinlarim bag‘rida xorijdan-da ortiq mablag‘ topish imkoniyatiga ega bo‘ldim.

Mahallada ijtimoiy himoyaga muhtoj, nogiron a’zosi bo‘lgan 6 ta oila istiqomat qiladi. “Mahalla yettiligi” har bir oila hayot tarzi, ish amallari bilan yaqindan tanishib, oilalarni moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash ishlarida bosh-qosh bo‘lyapti.

Fayozjon Meliqo‘ziyev voyaga yetmagan 3 farzandini yolg‘iz o‘zi tarbiyalab keladi.

Qulog‘i eshitmaydi, ko‘zi yaxshi ko‘rmaydi. Lekin qo‘li shirin pazanda. Oila hayoti bilan yaqindan tanishgan mahalla faollari unga uy sharoitida umumiy ovqatlanish shoxobchasi tashkil etish uchun 15 million so‘m imtiyozli kredit olishga ko‘maklashdi. Saxovatpesha homiylar ko‘magida uy-joyi ta’mirlanib, faoliyat yuritishi uchun kerakli shart-sharoit yaratib berildi.

— Birinchi kunning o‘zida 21 million so‘mlik xizmat ko‘rsatdik, — deydi oshpaz. — Berilgan kreditni o‘z vaqtida qaytarib, faoliyatimizni kengaytirib boryapmiz. Oila a’zolarimdan tashqari yana ikki qo‘shnini ham ishga jalb qildik, yetkazib berish xizmatlarini yo‘lga qo‘ydik.

Fayozjon tayyorlayotgan shirin taomlarni xo‘randalar suyib iste’mol qilmoqda. Endi u ijtimoiy nochor oilalar qatorida emas. Kimdandir ko‘mak olishga muhtojligi yo‘q, aksincha, mahallaning faol a’zosi sifatida foydali mehnat bilan band bo‘lgan kishilar safida yurt taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shmoqda.

Joriy yilning erta ko‘klamidagi yog‘ingarchilik nogiron, ijtimoiy himoyaga muhtoj Baxtiyorjon Ahmedov xonadoniga jiddiy ziyon yetkazdi. Ta’mirtalab, to‘kilay deb turgan uy yomg‘ir sabab qulab tushdi. Baxtiyorning oila a’zolari yolg‘izlanib qolmadi. Mahalladoshlari ko‘magi, qo‘llab-quvvatlashi bilan yangi uy qurib berildi.

— Xursandchiligimizni so‘z bilan ifodalab bera olmayman, — deydi yangi uyga ko‘chib o‘tgan xonadon sohibi. — Og‘ir kunda suyanchiq bo‘lib, har jihatdan qo‘llab-quvvatlab kelayotgan mahalladoshlarimga katta rahmat.

Mahalla fuqarolar yig‘ini raisi bilan hudud bo‘ylab yurib, qurilish bo‘layotgan xonadon oldida to‘xtadik.

— Mana shu uy ham “mahalla yettiligi” tashabbusi bilan qurilyapti, — deya bizni ichkariga boshladi rais. Poydevorli mo‘jaz uyning tomi yopilyapti. Yana sanoqli kunlardan so‘ng uy o‘z egasiga topshiriladi.

— Bir xo‘jalikda uch nafar nogiron oilasi bilan yashaydi, — deya davom etdi yig‘in raisi. — Kamtar, kamsuqum kishilar. Yashash sharoitlari bilan tanishgach, ko‘plashib bu oila uchun 6 sotix yer sotib oldik. “Ko‘pdan quyon qochib qutulmas” deganlaridek, uy-joy qurilishi ham oxirlab boryapti. Bunda har bir mahalladoshimiz, saxovatpesha tadbirkorlarning hissasi katta, albatta. Buni sizga bejiz ko‘rsatganim yo‘q. “Mahalla yettiligi” faoliyati, berilgan imtiyoz va imkoniyatlar mana shunday mehrga, ko‘makka muhtoj oilalar hayot tarzini o‘zgartirish, bugunidan rozi bo‘lib yashashiga imkoniyat bermoqda.

Mahallada “Yashil makon” umummilliy dasturining bahorgi mavsumida 6 ming tupdan ortiq mevali va manzarali daraxt ekilib, yashil belbog‘lar yaratilibdi. Hayotbaxsh islohotlarning kuzgi mavsumiga ham puxta hozirlik ko‘rilyapti.

Aholini elektr energiyasi bilan ta’minlash og‘riqli masalalardan biri bo‘lgan. Yangi xonadonlar va tadbirkorlik tarmoqlari ko‘payib borishi elektr energiyasiga talabni oshirdi. Yuklama bilan ishlagan tarmoqda ko‘plab nosozliklar yuzaga kelardi. Ichki elektr tarmoqlarini yangilash, qo‘shimcha transformator va ko‘cha chiroqlari o‘rnatish yuzasidan bildirgan takliflari “Ochiq budjet” loyihasida g‘olib bo‘lib, 1 milliard 200 million so‘mlik qurilish bunyodkorlik ishlari bajarildi.

> **Qoshqayronda yoshlar o‘rtasida jinoyatchilik yo‘q. Hudud to‘liq raqamlashtirildi. Har bir ko‘cha, aholi va yoshlar gavjum bo‘lgan hududlarida nazorat kameralari o‘rnatildi. Bezorilik, jinoyatchilikka moyil bo‘lgan yoshlar mahalla faollari va nuroniylar otalig‘iga olingan.**

Xotin-qizlar bandligini ta’minlash, ajralishlar oldini olish, tug‘uruq yoshidagi ayollar tibbiy salomatligini mustahkamlash, maktab va maktabgacha tarbiya tashkilotlarida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish borasidagi amaliy ish ko‘lami kengaydi.

Maqsudaxon Muhammedovaning turmush o‘rtog‘i vafot etib, 4 qizi bilan yolg‘iz qoldi. Bilimga chanqoq, intiluvchan ikki qizi kontrakt asosida o‘qishga qabul qilindi. Mushfiq ona nima qilarini, qayga borishini bilolmay sarson bo‘lib turgan bir pallada “mahalla yettiligi” ko‘makka keldi. Bir nafariga ta’lim krediti asosida to‘lov ajratishga ko‘maklashildi, boshqasiga saxovatpesha homiylar ko‘magi qo‘l keldi. Uy bekasiga subsidiya asosida pishiriq pechi, xomashyo uchun imtiyozli mablag‘ berildi. Maqsudaxon farzand tarbiyasi, uy yumushlaridan ortib, pishiriqlar tayyorlab, daromad topmoqda, bolalarini o‘qityapti.

Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamini aniqlash, ularga davlatimiz tomonidan kafolatlangan yordamlar manzilli va tizimli asosda yetib borishini ta’minlash maqsadida mahallalarda ijtimoiy xodim lavozimlari joriy etilganiga ko‘p bo‘lgani yo‘q. Yangi tuzilma og‘ir ahvolga tushib qolgan va tushib qolish xavfi yuqori bo‘lgan shaxslar va oilalarni aniqlash, ehtiyojlariga qarab amaliy yordam ko‘rsatishda muhim vositaga aylanadi.

— Shu kunga qadar ikki fuqaroga “Saxovat ko‘mak“ jamg‘armasi hisobidan moddiy yordam ko‘rsatildi, bir nafariga bepul eshitish moslamasi berildi, vasiylikka olingan uch yoshning yashash sharoiti o‘rganilib, dalolatnomalar tuzildi, ikki nafariga boquvchisini yo‘qotganlik nafaqasi tayinlandi, — deydi ijtimoiy xizmat ko‘rsatuvchi xodim Alisher Niyozmatov. — Bolalikdan nogiron Hayotxon Ergashaliyevni alohida ta’limga jalb qilish uchun amaliy yordam ko‘rsatildi. Ijtimoiy himoya yagona reyestri ro‘yxatida turuvchi kam ta’minlangan 47 oilaga bolalar nafaqasi va moddiy yordam puli tayinlash yuzasidan dalolatnoma tuzildi.

Bir so‘z bilan aytganda, mahalla chin ma’noda xalqning suyanchig‘i, maslakdoshi sifatida kundalik hayotdagi o‘rnini mustahkamlab bormoqda. Buni obod va farovon mahallalarda fayziyob yashayotgan yaxshilar hayot tarzi ko‘rsatib turibdi.

Rasuljon KAMOLOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Hududlar hayoti

HOSIL YANGI YIL ARAFASIDA UZILADI

Oftobro‘ya — Kitob tumanining tog‘li hududida joylashgan qishloqlardan biri. Bu qishloq odamlari azaldan mehnatkashligi bilan doim boshqalarga o‘rnak bo‘lib kelgan. Boisi, ushbu manzilda bo‘lgan kishi bekor yurganni qaysi faslda bo‘lmasin uchratmaydi. Har doim qo‘llari mehnatda. Kimdir bog‘ida, yana birovi issiqxonasida band. Ayniqsa, qishloq odamlari uzum yetishtirishning hadisini olgan. Shu sabab yaqin atrofda kimdir mazali uzumdan tatib ko‘rmoqchi bo‘lsa, hech ikkilanmay Oftobro‘yaga kelaveradi. Ajablanarli tomoni, qishloqda qish faslining qoq o‘rtasida ham tokdan uzum uzib, iste’mol qilishingiz mumkin.

Qishloqning nomi ham bejiz Oftobro‘ya deb atalmagan. Mahalliy aholining aytishicha, tongdanoq quyosh nurlari qishloqqa tushib, to kechga qadar soya tushmas ekan. Bu esa shu joyda o‘zgacha maza beradigan uzumlarning yetilishiga sabab bo‘lar ekan.

Tilovmurod aka ham shu qishloqda tug‘ilib voyaga yetgan. Bugun yoshi oltmishga yaqinlashayotib aksar bog‘bonlarning ustoziga aylangan. Buning o‘ziga yarasha sabablari bor, albatta. Uning bog‘dorchilik borasidagi tajribasini ko‘pchilik o‘rganishga harakat qiladi. Jumladan, hosildorlikni oshirish, uzoq vaqt saqlash borasida unga teng keladigani kam. Misol uchun, shu hududda aksar bog‘bonlar tomorqasida topilmagan uzumni qishning chillasida ham Tilovmurod akaning tokzoridan topish mumkin. Ayni paytda kuzning sovuq kunlari boshlangan bo‘lishiga qaramay, uning toklarida hamon husayni uzum saqlanib turibdi. Xaridorlar buyurtma beradigan bo‘lsa, shundoqqina tokdan uzumni uzib oladi-da, taroziga qo‘yib tortib, pulini sanab olgancha berib yuboraveradi. Mazasi tilni yoradigan uzumni yegan kishi yana izlab kelaveradi.

— Bog‘bonlik bizga ota-bobomizdan meros, — deydi Tilovmurod Nurov. — Bolaligimizdan suyagimiz mehnatda qotgan. Halol ishlab, ro‘zg‘or tebratishga nima yetsin. Shukrki, birovdan kam joyimiz yo‘q. Shu uzumchilik ortidan yaxshi yashayapmiz, oilamiz farovon. Aslida, qishloqdagi deyarli to‘qson foizdan ortiq xonadonning hovlisida tok bor. Barchasi uzum yetishtirish sirlarini yaxshi biladi. Bundan tashqari, bilmaganimizni bir-birimizdan so‘raymiz. Agrotexnik tadbirlarni o‘zaro maslahatlashib, yordamlashib o‘tkazamiz. Yoshi keksa otaxonlarimiz maslahatiga quloq tutib ishlaymiz. Natijada shuning ortidan doim ro‘zg‘orga daromad kirib turibdi.

Tilovmurod akaning bog‘ida bugun yuz tupdan ortiq husayni va ellik tupga yaqin “Qora go‘zal” uzum navlari ekilgan. Uning aytishicha, har bir tok o‘rtacha yuz kilogrammdan ortiq hosil beradi. Bugungi kunda bu uzumning ulgurji narxi 12-13 mingdan bo‘ladigan bo‘lsa, bitta tokning o‘zidan kamida bir million ikki yuz, bir million uch yuz so‘m mablag‘ foyda ko‘rish mumkin. Demak, Tilovmurod akaning mo‘jaz bog‘ida bir mavsumda umumiy hisobda yuz ellik million so‘mdan ortiq ishlab topish imkoniyati yaratilgan. Yana bir jihati, uzumlar dekabr oyi so‘nggiga, ya’ni yangi yil bayramiga qadar tokda saqlanib turarkan. Buning uchun toklar usti plyonka bilan yopib qo‘yiladi.

— Tokda uzilmasdan turgan hosilning ta’mi boshqacha bo‘ladi, — deydi Tilovmurod aka. — Bundan tashqari, o‘z holicha saqlanadi. Bu esa o‘ta xaridorgir bo‘lish bilan birga, yuqori narxda sotishga imkon ham. Albatta, sovuq kunlarda saqlashning o‘zi bo‘lmaydi. Buning uchun bog‘bondan mahorat talab etiladi. Hozir ko‘rib turganingizdek, atrofi va usti bilan yopilgan. Imkon darajasida ochiq joy qoldirmaslikka harakat qilamiz. Bir boshidan hosilni olib, savdoga chiqarib boramiz. Uzumlari yig‘ishtirib olingan toklarni esa shu vaqtning o‘zida vayishdan yerga olib, ko‘mishni boshlaymiz.

Qishloq odamlarining aytishicha, bu hududda kambag‘alman degan kishining o‘zi yo‘q. Mabodo kimdir biror yetishmovchilikdan nolib qoladigan bo‘lsa, unga bog‘dorchilik qilishga imkoniyat yaratib berib, mehnat qilishi uchun yordam qo‘lini cho‘zisharkan. Bu tashabbus esa odamlarni doim harakatga undab kelishi aniq. Bir so‘z bilan aytganda, manzilda kambag‘allik ortga chekinib, farovonlik sari dadil qadam tashlanmoqda.

Keyingi yillarda Kitob tumanida kambag‘allikni qisqartirish borasidagi ishlarda ijobiy o‘zgarishlarni kuzatish mumkin. Tumanda, asosan, bog‘dorchilik va meva-sabzavotchilikni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilishi samarasida aholining o‘zini o‘zi bandligini ta’minlashi ham yaxshi yo‘lga qo‘yilgan.

— Joriy yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra, tumanimizda kambag‘al oilalar soni 11 mingdan ortiq edi, — deydi Kitob tumani hokimining birinchi o‘rinbosari Turg‘un Nasimov. — Sa’y-harakatlarimiz natijasida ishsizlar sonini kamaytirishga erishdik.

Xususan, yil boshida kambag‘allik darajasi tumanda 15,2 foiz bo‘lgan bo‘lsa, yil yakunida bu ko‘rsatkichni 9,1 foizga tushirish maqsad qilingan. Buning uchun bir qator chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Misol uchun, aholini doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy ishlar bilan band qilish bo‘yicha joriy yilgi rejamiz 32 ming 639 kishi qilib belgilangan. Amalda esa sentyabr oyi holatiga ko‘ra, 33 mingdan ortiq kishi ishga joylashtirildi. Asosan, xizmat ko‘rsatish, qurilish, qishloq xo‘jaligi sohalarida bandligi ta’minlandi.

Bundan tashqari, tuman kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi tomonidan ham uch mingga yaqin kishi doimiy ishga joylashtirildi. Shuningdek, o‘n ikki mingdan ortiq odam biznesga jalb etildi.

Tuman mutasaddilarining ta’kidlashicha, aholi o‘zini o‘zi band qilishida, turli yo‘nalishlarda mehnat qilib daromadli bo‘lishida, kambag‘allikdan farovonlik sari qadam tashlashida mahallalarda faoliyat yuritayotgan hokim yordamchilarining hissasi katta bo‘lmoqda. Ularning tavsiyasi asosida ajratilayotgan imtiyozli kreditlar sabab bog‘dorchilik, dehqonchilikda yangidan yangi ish o‘rinlari ochilyapti. Asosiysi, berilgan imkoniyatlardan unumli foydalanilmoqda. Natijada odamlarning roziligi ortib, turmush tarzi yaxshilanmoqda. Bu esa ko‘zlangan maqsad sari tashlangan qadamlar samara berayotganidan dalolat.

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Yangidan yangi ekologik tahdidlar hatto dunyo geosiyosiy arxitekturasiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Atrof-muhit ifloslanishi, iqlim o‘zgarishi va tabiiy resurslardan samarasiz foydalanish bilan bog‘liq global muammolar esa barqaror rivojlanishga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

COP29 Baku Azerbaijan

UMUMIY FAROVONLIK VA TARAQQIYOT YO‘LIDA DOIMO TAYYORLIK

BU YANGI O‘ZBEKISTONNING BASHARIYAT TAQDIRIGA DAXLDOR TASHABBUSLARIDA O‘Z AKSINI TOPMOQDA

Lutfulla SUVONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Ikkinchidan — transchegaraviy suv resurslari ifloslanishining oldini olish va barqaror bioxilma-xilligini saqlashda yagona yondashuvlar zarurligi ta’kidlandi.

Davlatimiz rahbari “Mintaqamiz misolida aytib o‘tmoqchimanki, bir avlod ko‘z o‘ngida Orol dengizining butunlay yo‘qolishi sayyoramiz miqyosidagi fojiaga aylandi. Shu o‘rinda biz BMT shafeligida Daryo ekotizimlarining butunligi va ekologik xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha majburiyatlar to‘g‘risidagi deklaratsiyani ishlab chiqish tarafdorimiz”, dedi.

Uchinchidan — ko‘p tomonlama yetakchi tuzilmalar ishtirokida o‘simliklarning iqlim o‘zgarishlariga chidamliligini oshirish uchun Genetik resurslarning mintaqaviy bankini ishga tushirish reja qilingani bildirildi.

Bu haqda gapirar ekan, “Dengizga chiqish imkoni bo‘lmagan davlatlar uchun yurtimizda BMTning innovatsion agrosanoat xabini yaratish tashabbusini ilgari suramiz”, dedi davlatimiz rahbari.

To‘rtinchidan — iqlim o‘zgarishlaridan zarar ko‘rayotgan megapolis va shaharlarning barqaror rivojlanishi bo‘yicha ilg‘or bilim va amaliyotlar transferi uchun Jahon iqlim poytaxtlari alyansini tashkil etish va uning birinchi forumini Toshkentda o‘tkazish taklif qilindi.

Beshinchidan — “Kelgusi yili 15-may — Xalqaro iqlim kunida Orolbo‘yi mintaqasida o‘tkaziladigan Raqamli “yashil” tashabbuslar global yoshlar festivalida davlatlaringiz vakillarini kutib qolamiz”, deya g‘oyat muhim tashabbusni ilgari surdi Prezidentimiz.

Davlatimiz rahbari Ar-Riyod va Bokudagi nufuzli tadbirlarda xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar rahbarlari hamda boshqa nufuzli rasmiy shaxslar bilan jami 20 ga yaqin uchrashuv o‘tkazdi.

Bu uchrashuvlarda dunyo xalqlari, jumladan, mamlakatimiz uchun manfaatli masalalar muhokama qilindi, muhim kelishuvlarga erishildi.

Prezidentimiz Boku shahrida BMTning Iqlim o‘zgarishi to‘g‘risidagi hadli konvensiyasi tomonlari konferensiyasining 29-sessiyasidagi nutqida muhim tashabbuslarni ilgari surgani haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, eng avvalo, ta’kidlash joizki, bugungi ekologiya va iqlim o‘zgarishlari hayot-mamot masalasiga aylanmoqda.

Shu bois, dunyoning ko‘plab davlatlari, xalqaro tashkilotlar, fuqarolik jamiyati vakillarini jamlagan global sammit doirasida iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurashish va oqibatlarini yumshatish bo‘yicha xalqaro sa’y-harakatlarni birlashtirish, buning uchun iqlim strategiyalarini moliyalashtirish va “yashil” energiyaga o‘tishni maqsad qilgan.

O‘zbekistonning mazkur sammitdagi ishtiroki iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashdagi qat’iy sodiqligini yana bir bor ifodalaydi. Ushbu muloqot maydonida O‘zbekiston yangi tashabbuslarni ilgari surishi, ilg‘or xalqaro tajribani o‘rganish va mamlakatning amaliy sa’y-harakatlari haqida so‘z yuritishi barqaror kelajakni ta’minlash uchun jahon hamjamiyati bilan hamkorlikni kengaytirish imkonini beradi.

“Iqlim o‘zgarishlari bugungi kunda asosiy global tahdidga aylanib bormoqda, geosiyosiy ziddiyatlar kuchayishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, kambag‘allikka qarshi kurash, oziq-ovqat va energetika xavfsizligi, suv va resurslardan foydalanish muammolarini kuchaytirmoqda. Bularning asoratlarini Markaziy Osiyoda o‘tkir his qilmoqdamiz. Iqlim muammolari aholimizning turmush sifatini oshirish va milliy taraqqiyot strategiyalarini ro‘yobga chiqarishda yangi to‘siqqa aylanmoqda”, dedi Prezidentimiz.

O‘tgan yillar davomida yurtimizda milliy darajada ko‘plab ekologik loyihalar va dasturlar ishga tushirildi hamda ular bugun samarali natijalar bermoqda.

Mamlakatimiz 1993-yilda BMTning hadli konvensiyasiga qo‘shildi va 2017-yilda Parij bitimini imzolab, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish bo‘yicha majburiyatlar oldi. Shuningdek, mamlakatdagi ekologik muammolarni hal etish va BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish bo‘yicha qator konseptual hujjatlar tasdiqlandi.

Markaziy Osiyo mintaqasida so‘nggi yillarda suv tanqisligi, biologik xilma-xillikning kamayishi kabi ekologik muammolar kuchaymoqda. Buning oqibatlarini zudlik bilan bartaraf etishga kirishmaslik tiklanib bo‘lmas ekologik fojialarga sabab bo‘lishi mumkin.

Mamlakatimiz xalqaro huquqning teng huquqli a’zosi sifatida ekologiya sohasida o‘nlab xalqaro konvensiyalarni ratifikatsiya qilgan. Shu bilan birga, qator muhim majburiyatlarni amalga oshirish yuzasidan milliy dastur va chora-tadbirlar rejasini amalga oshirmoqda. Ushbu majburiyatlar fuqarolarning ekologik huquq va erkinliklarini ta’minlash, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik muhitga yetkazilayotgan salbiy oqibatlarni kamaytirish asnosida iqlim o‘zgarishlari ta’sirini yumshatishga qaratilgan tadbirlarni taqozo etadi.

Bahor XIDIROVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Yangidan yangi ekologik tahdidlar hatto dunyo geosiyosiy arxitekturasiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Atrof-muhit ifloslanishi, iqlim o‘zgarishi va tabiiy resurslardan samarasiz foydalanish bilan bog‘liq global muammolar esa barqaror rivojlanishga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, 2050-yilga kelib, 216 milliondan ortiq odam iqlim o‘zgarishi sabab o‘z mamlakatini tark etishi mumkin. Xususan, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyoda 5 million iqlim migranti paydo bo‘lishi taxmin qilinmoqda.

Odamlar iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy omillarga ko‘ra o‘z makonlarini tashlab ketishga majbur bo‘lmoqda. Hozirgi kunda esa iqlim o‘zgarishi sabab o‘z uylarini tashlab chiqib ketayotgan odamlar soni ortmoqda va bu tendensiya kelajakda yana kuchayishi prognoz qilinmoqda.

Iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning kamayishi va atrof-muhit ifloslanishi bilan bog‘liq ekologik muammolarning butun dunyoga salbiy ta’siri tobora chuqurlashib boryapti. Buning natijasida ro‘y berayotgan turli tabiiy ofatlar sog‘liqni saqlash, oziq-ovqat, suv va sanitariya, hatto insonning yashash huquqiga ham bevosita ta’sir qilmoqda.

BMTning Bolalar jamg‘armasi — UNICEF ushbu jihatlarni e’tiborga olib, sayyoramizda ro‘y berayotgan iqlim o‘zgarishini “bola huquqlari inqirozi” deb nomlagani bejiz emas. Zero, ekstremal ob-havo hodisalari tufayli suv toshqini xavfi o‘ta yuqori va qurg‘oqchilikka moyil hududlarda istiqomat qilayotgan millionlab bolalar va butun aholining hayot-mamoti, taqdiri barqaror rivojlanishga erishishga doir muhim chora-tadbirlarning o‘z vaqtida va oqilona hal etilishiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

Chegara bilmaydigan ushbu ekologik ofatlar mintaqamizni ham chetlab o‘tmayapti. Markaziy Osiyoda havo harorati oshishi jahondagi o‘rtacha ko‘rsatkichdan ikki baravar ko‘p. So‘nggi yillarda favqulodda issiq kunlar soni 2 karra ortdi, muzliklar maydonining uchdan bir qismi erib bitdi. Tuproq yemirilishi, muntazam chang va qum bo‘ronlari, ichimlik suv taqchilligi, havo ifloslanishi, bioxilma-xillik qisqarishi, hosildorlik keskin pasayishi va ko‘plab boshqa muammolar mintaqada yashayotgan millionlab odamlarning turmushi sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Prezidentimiz xalqaro minbarlardan turib jahon hamjamiyati e’tiborini ushbu ekologik muammolarga ko‘p bora jalb etib kelmoqda. Jumladan, davlatimiz rahbari o‘tgan yili Dubay shahrida BMTning Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha konferensiyasi (COP28)da so‘zlagan nutqida ham mintaqamizdagi dolzarb ekologik muammolar haqida to‘xtalib, barqaror rivojlanishga erishish borasida qator tashabbuslarni ilgari surdi. Uning doirasida shu yil iyun oyida Samarqandda bo‘lib o‘tgan xalqaro forum iqlim va inson huquqlari muammolarini muhokama qilishda muhim muloqot maydoniga aylandi.

Ayni paytda mamlakatimizda ekologik muvozanatni ta’minlashga yo‘naltirilgan xalqaro konvensiyalar hamda boshqa hujjatlar orqali zimmaga olingan majburiyatlarni bajarish yo‘lida tizimli ishlar qilinmoqda. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda insonning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqi alohida bobda mustahkamlandi. Davlatning atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha vazifalarni amalga oshirishga oid majburiyatlari belgilab qo‘yildi.

Iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashishning yagona davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish maqsadida Prezidentimiz huzurida Iqlim kengashi tuzildi. Shuningdek, Orolbo‘yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish va tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, mamlakatimizda “yashil” iqtisodiyotga va uglerod neytralligiga o‘tish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Jumladan, 2030-yilga borib, mamlakatimiz energetika balansida qayta tiklanuvchi energiya quvvatini 40 foizga yetkazish rejalashtirilgan. “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida O‘zbekistonda 1 milliard tup ko‘chat ekilmoqda. Orol dengizining qurigan tubida 2 million gektar maydonda o‘rmon barpo etildi.

So‘nggi yillarda sanoat va ishlab chiqarish tarmog‘i jadallik bilan rivojlanib borayotgani, bir tomondan, iqtisodiy farovonligimizga xizmat qilayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ekologik muvozanatni saqlash borasidagi ishlarga e’tiborni yanada kuchaytirishni taqozo etayotir. Shundan kelib chiqib, ekologik hodisalar ta’sirini kamaytirish va havo musaffoligini saqlash bo‘yicha dasturlar amalga oshirilayotir. Bu jarayonda so‘nggi paytlarda tez-tez ro‘y berayotgan chang bo‘ronlariga qarshi kurashishga e’tibor kuchaytirilyapti.

Shu yo‘nalishda 2024-2030-yillarga mo‘ljallangan milliy dastur doirasida “Yevro-4” standartidan past toifadagi yoqilg‘ini sotish va undan foydalanishni bosqichma-bosqich to‘liq taqiqlash nazarda tutilyapti. Buning uchun Buxoro va Farg‘ona neftni qayta ishlash zavodlari yuqori sifatli yoqilg‘i ishlab chiqarish bo‘yicha modernizatsiya qilinadi. Toshkent shahrida havo sifatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar dasturiga ko‘ra, kelgusi 5 yilda poytaxtimiz va unga tutash Toshkent viloyati tumanlarida 441 gektar “yashil belbog‘” va bog‘lar tashkil qilish ko‘zda tutilgan.

Joriy yil 7-noyabrda Prezidentimiz raisligida qishloq xo‘jaligida suv va energiya manbalaridan oqilona foydalanish hamda yo‘qotishlarni kamaytirish chora-tadbirlari yuzasidan bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishida ham insoniyat kelajak taqdiriga daxldor ekologik muammo va ularning salbiy ta’sirini yumshatish masalalari yana bir karra tahlil etilib, ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Tadbirda qayd etilganidek, mintaqamiz rivojiga xavf solayotgan ekologik muammolardan biri — suv tanqisligiga qarshi kurashish maqsadida izchil ishlar olib borilyapti. Jumladan, suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish, irrigatsiya tarmoqlarini modernizatsiyalashga alohida e’tibor qaratilyapti. Suv boshqaruvi isloh qilinib, tumanlarda suvni hisobga olish tizimi shakllandi. Shaffof tizim yo‘lga qo‘yilgani natijasida bu yil yerga ikki karra ko‘p suv bordi, yana 6 milliard kub metr suv hisobi joyiga qo‘yildi.

Lekin hali dolzarb muammolar talaygina. Masalan, klaster va fermerlarga yetkazib berilayotgan har bir kub metr suvga respublika bo‘yicha o‘rtacha 212 so‘m xarajat qilinyapti. Ba’zi hududlarda esa bu 2-3 barobar qimmat. Yig‘ilishda shu kabi muammolardan kelib chiqib, galdagi vazifalar belgilandi. Xususan, obihayotni tejash, suv behuda isrof bo‘lishining oldini olish, sohaga yangi texnologiyalarni jalb etishga e’tiborni kuchaytirish maqsadida 2025-yil suv xo‘jaligida “nasoslar samaradorligini oshirish yili” bo‘lishi belgilandi.

Albatta, kelajakni ko‘zlagan bunday xayrli ishlarning ahamiyati beqiyos. Buning natijasida, eng avvalo, tabiatga munosabat o‘zgaradi, ona zaminning har bir ne’matidan oqilona foydalanish kun tartibiga ko‘tariladi. Eng muhimi, bu kabi ekologik loyihalar ijro etilishi samarasida har bir insonning musaffo atrof-muhitda yashashga bo‘lgan huquqi ro‘yobga chiqariladi. Shunday ekan, suv, havo, tuproq muhofazasi yo‘lida qilinayotgan har bir xayrli ish nafaqat bir hudud yoki mintaqa, balki butun insoniyatning kelajak taqdirini hal etish va hayot davomiyligini ta’minlashdek ezgu maqsadlarga xizmat qiladi.

“YASHIL MAKON” UMUMMILLIY LOYIHASI EKOLOGIK XAVFLARNI BARTARAF ETADI

Shodiyor AZIZOV,
“Jonli tabiat” NNTning
Toshkent shahri bo‘limi rahbari:

— Prezidentimizning COP29 sammitidagi nutqidan xulosa qilgan holda, yurtimizda amalga oshirilayotgan muhim bir yo‘nalishga alohida to‘xtalmoqchiman. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan qo‘r olgan “Yashil makon” umummilliy loyihasi iqlim o‘zgarishlarining oldini olishda, ekologik xavflarni bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Dastur doirasida ko‘kalamzor hududlar keskin ko‘paytirilayotgani e’tiborga molik.

Dasturlarda atrof-muhit obyektlarini inson ta’siri hamda boshqa salbiy ta’sir qiluvchi omillardan saqlash va sifatini ta’minlash hamda sanoat ishlab chiqarishi, urbanizatsiya ko‘lami keskin kengayishi va aholi punktlariga tushayotgan ekologik yukni kamaytirish mexanizmlarini takomillashtirish rejalari ishlab chiqilgan va izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz rahbari ta’kidlaganidek, 2030-yilgacha havoga isciqxona gazlari chiqarilishini 35 foizga kamaytirish, bu majburiyatni 2050-yilga qadar yanada kengaytirish, shuningdek, “Yashil” energetika ulushini 40 foizgacha oshirish, elektromobil va “yashil” vodorod klasterlari, quyosh va shamol generatsiya xablarini bu muammoning oqilona yechimi deb bilamiz.

Bu borada qo‘shni davlatlar bilan hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni maqsadda sammitda Prezidentimiz Mintaqaviy iqlim strategiyasi hayotga tatbiq etilayotganini qayd etdi. Bu kabi chora-tadbirlar nafaqat mintaqa, balki mintaqa orqali butun dunyo ekologik muvozanatini yaxshilashga xizmat qilishi bilan g‘oyat dolzarbdir.

IQLIM O‘ZGARISHLARI GEOSIYOSIY KESKINLIK KUCHAYISHIGA BEVOSITA TA’SIR KO‘RSATMOQDA

Hojimurod TOLIPOV,
O‘rmon xo‘jaligi agentligi
O‘rmonlar barpo qilish va
qayta tiklash boshqarmasi
bosh mutaxassisi:

— Bugun iqlim o‘zgarishi global miqyosda keskin tus oldi. Davlatimiz rahbari Boku sammitidagi nutqida eng og‘riqli masalalardan biri bo‘lgan Orol muammosiga ham to‘xtalib, innovatsion ko‘kalamzorlashtirish va yerlarni barqaror boshqarish, Orolbo‘yidagi ijtimoiy ekologik vaziyatni yaxshilash dasturlarini amalga oshirish orqali sheriklikni yanada kengaytirishga kelishib olinganini qayd etdi.

Parij bitimi doirasida mintaqada havo haroratining jadal o‘sishiga yo‘l qo‘ymaslik va joriy yuz yillikda 1,5-2 gradus atrofida saqlab qolish, bu borada O‘zbekistonda uglerod neytralligiga erishish bo‘yicha keng miqyosdagi islohotlar qat’iy olib borilayotgani qayd etildi.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, iqlim o‘zgarishlari bugungi kunda asosiy global tahdidga aylanib, geosiyosiy keskinlikning kuchayishiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, kambag‘allikka qarshi kurash, oziq-ovqat va energetik xavfsizlikni ta’minlash, ichimlik suv va tabiiy resurslardan foydalanish muammolariga kuchli ta’sir ko‘rsatmoqda.

O‘rmonchi sifatida shuni aytishim kerakki, so‘nggi yillarda Orolning qurigan tubida 2 millionga yaqin yashil qoplamalar barpo etildi. Bu dengizning ochilib qolgan hududidan zararli qum changlari atmosferaga ko‘tarilishining oldini olishda juda katta rol o‘ynaydi.

2024-yil 15-noyabr, 232-son

E’tiborli jihati, betonlangan kanallarda suv oqimi tezlashadi. Bu — kichik GESlar qurib, elektr energiyasi olishga katta imkoniyat, degani. Demak, hududlarda 2 mingta mikro GES qurib, yiliga qo‘shimcha 600 million kilovatt elektr energiyasi olish mumkin.

YANGI O‘ZBEKISTON
www.yuz.uz yuz.uznews yuz_offi yuz.uz_news yuz

Munosabat

SUV SARFI RAQAMLASHMAS EKAN, MUAMMO KO‘PAYIB BORAVERADI

Odinaxon OTAXONOVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

Boshlanishi 1-betda

Shuningdek, qishloq xo‘jaligining ajralmas qismi bo‘lgan suv xo‘jaligini modernizatsiya qilish va rivojlantirish, suv resurslarini boshqarishda ilmiy yondashish, sohaga suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy etish orqali yerning meliorativ holatini yaxshilash borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Sohadagi normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish bilan birga, suv xo‘jaligini rivojlantirish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlar va kompleks chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasi qabul qilindi.

Suv tejaydigan texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha rivojlangan xorijiy mamlakatlar, jumladan, AQSH, Turkiya, Xitoy, Avstraliya va boshqa davlatlarning ilg‘or tajribasi qo‘llanib kelinmoqda. Bu jarayonda yurtimizda tomchilatib, yomg‘irlatib va diskret kabi usullarda sug‘orish, shuningdek, yerni lazerli tekislash texnologiyalari joriy qilinyapti.

Yaratilgan qulay sharoit, taqdim etilayotgan imtiyozlar tufayli keyingi yillarda O‘zbekistonda hududlar va iqtisodiyot tarmoqlarini suv resurslari bilan barqaror va oqilona ta’minlash, yerning meliorativ holatini yaxshilash, irrigatsiya va melioratsiya tizimining ishonchli ishlashini yo‘lga qo‘yish borasida salmoqli natijalarga erishildi.

Birgina 2023-yilda 2 milliard kub metr suv tejalgan. 190 ta irrigatsiya va melioratsiya obyektida qurilish hamda rekonstruksiya ishlari bajarilgan. Melioratsiya yo‘nalishida 230,3 kilometr ochiq, 156 kilometr yopiq kollektor-drenaj tarmoqlari, 6 ta vertikal drenaj qudug‘i, 59 ta gidrotexnik inshoot, 58 ta kuzatuv qudug‘i qurildi va rekonstruksiya qilindi.

Irrigatsiya tizimini raqamli texnologiyalar asosida avtomatlashtirilgan boshqaruvga o‘tkazish maqsadida o‘tgan yili 7339 ta “aqlli suv”, 2578 ta “dayver” va 271 ta nasos qurilmasi o‘rnatilib, 21 ta yirik suv xo‘jaligi obyektining boshqaruv jarayoni avtomatlashtirildi.

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 5-yanvardagi “Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori sohadagi islohotlarning mantiqiy davomi bo‘ldi.

Mazkur qaror bilan tuman irrigatsiya bo‘limlari hamda maxsus xizmatlari negizida suv yetkazib berish xizmati davlat muassasalari tashkil etildi. Ushbu muassasalar mamlakatda suvdan samarali foydalanish, suv xizmatlari ko‘rsatish bo‘yicha barcha zarur texnik vosita bilan ta’minlanadi. Bu esa sug‘orish tarmoqlariga xizmat ko‘rsatish ishlarini ikki barobar arzonlashtiradi.

Prezidentimiz joriy yil 22-oktabrda imzolagan “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun, shubhasiz, suv resurslarini samarali boshqarish tizimi joriy etilishiga xizmat qiladi. Chunki bu qonunga binoan O‘zbekiston Respublikasining qator qonunlariga Suv xo‘jaligi vazirligi tizimidagi irrigatsiya bo‘limlari hamda maxsus xizmatlar negizida tashkil etilgan suv yetkazib berish xizmati davlat muassasalarining vazifalari va vakolatlarini, shuningdek, qishloq xo‘jaligi ehtiyoji uchun suv olish limiti xalq deputatlari tuman (shahar) kengashlari tomonidan tasdiqlanishini nazarda tutuvchi o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

Shu bilan birga, tuzilgan kontraktatsiya shartnomalariga muvofiq davlat ehtiyoji uchun mahsulot yetkazib berilishini ta’minlash bo‘yicha fermer xo‘jaliklarining majburiyati va qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilarga suv yetkazib berish xizmati uchun to‘lovlar bekor qilinmoqda.

Qonunchilik palatasi tomonidan ayni paytda ikkinchi o‘qishga tayyorlanayotgan “O‘zbekiston Respublikasining Suv kodeksini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qonun loyihasi bilan suv xo‘jaligida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy qilish shartlari belgilanib, suvdan foydalanish uchun ruxsatnoma berish shartlari soddalashtirilyapti.

Bundan tashqari, “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ham suv ishlatish samaradorligini 25 foiz oshirish, tuproq qoplamali kanallarni beton qoplamaga hamda ichki sug‘orish tarmoqlarining yopiq quvurli sug‘orish tizimlariga o‘tkazish bo‘yicha yetti yillik dastur doirasida irrigatsiya tizimi va sug‘orish tarmoqlarining foydali ish koeffitsiyenti ko‘rsatkichini 0,73 gacha yetkazish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

Ushbu dasturiy hujjatda suvni qayta ishlash, yetkazish va taqsimlash tizimiga xususiy sektorni jalb etish, dalalarga suv yetkazadigan obyektlarni tadbirkorlar (fermer xo‘jaliklari va klasterlar) boshqaruviga berish, suv tejovchi texnologiyalar ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalarning yillik quvvatini 300 ming gektarga yetkazish ham maqsad qilingan.

Sug‘orish tarmoqlarida suv yo‘qotishni keskin kamaytirish uchun kanal va ariqlarni betonlashtirish yaxshi samara beradi. Shu bois, huquqiy hujjatda qishloq xo‘jaligi sohasida suv resurslaridan oqilona foydalanishni ta’minlash uchun 18,7 ming kilometr yoki 66 foizi tuproq o‘zanli magistral va xo‘jaliklararo kanallarning beton qoplamali ulushini 13,1 ming kilometr yoki 46 foizga yetkazish o‘rin olgan. Ayni paytgacha 550 kilometr kanal va ariq betonlangani evaziga 200 ming gektar yerga suv yetkazib berish holati yaxshilanib, yiliga 450 million kub metr suv iqtisod qilinyapti.

Suv boshqaruvi isloh qilinishi, tumanlarda suvni hisobga olish tizimi shakllangani, fermerlar suvni hisob-kitob qilishni o‘rgangani va shaffof tizim yo‘lga qo‘yilgani natijasida joriy yil yerga 2 karra ko‘p suv bordi. Asosiysi, yana 6 milliard kub metr suv hisobi joyiga qo‘yildi. Bularning barchasi sohadagi puxta o‘ylangan va izchil siyosat, suv resurslarini rivojlantirish masalalariga doimiy e’tibor samarasidir.

Sohada hal etilishi kerak bo‘lgan muammolar ham yetarli. Xususan, klaster va fermerlarga yetkazib berilayotgan har bir kub metr suvga mamlakat bo‘yicha o‘rtacha 212 so‘m xarajat sarflanyapti. Buxoro, Qashqadaryo va Namangan viloyatlarida bu ko‘rsatkich 2-3 barobar yuqori.

Oxirgi yillarda 1 milliard dollar hisobiga Qarshi, Amu-Buxoro, Amu-Zang kabi yirik nasos stansiyalari modernizatsiya qilindi. Lekin o‘rta va mayda nasoslar eskiligi sababli suv tannarxi oshib ketyapti. Betonlash hisobiga yo‘qotish 10-15 foiz kamaygan bo‘lsa-da, 20 ta tumanda bu ko‘rsatkich yuqori.

Prezidentimiz raisligida shu yil 7-noyabr kuni o‘tkazilgan qishloq xo‘jaligida suv va energiya manbalaridan oqilona foydalanish hamda yo‘qotishlarni kamaytirish chora-tadbirlari yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ushbu masalalardan kelib chiqib, galdagi vazifalar belgilab berildi.

Yig‘ilishda aytilganidek, joylarda hali betonlash zarur bo‘lgan 18 ming kilometr magistral va 94 ming kilometr ichki kanal bor. Shu bois, kelgusi yilda bu ishlarga 800 milliard so‘m ajratilishi belgilandi. Bu nafaqat suv sarfi hajmini katta miqdorda iqtisod qilish, balki hosildorlikni oshirish, sarf-xarajatni sezilarli darajada kamaytirishga zamin yaratadi.

E’tiborli jihati, betonlangan kanallarda suv oqimi tezlashadi. Bu — kichik GESlar qurib, elektr energiyasi olishga katta imkoniyat, degani. Demak, hududlarda 2 mingta mikro GES qurib, yiliga qo‘shimcha 600 million kilovatt elektr energiyasi olish mumkin. Shu bois, mutasaddilarga bu borada xususiy sheriklik shartlarini ishlab chiqib, tadbirkorlarga e’lon qilish topshirildi.

Keyingi yillarda suv xo‘jaligi sohasiga raqamli texnologiyalarni joriy etishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Bu bejiz emas, albatta. Chunki suv xo‘jaligi sohasida keskin o‘zgarish qilishning birdan-bir yo‘li raqamlashtirishdir. Shuning uchun ham nasos stansiyalariga onlayn nazorat va “aqlli suv” qurilmalari olib kelingan.

Biroq ulardan olinadigan ma’lumotlarni jamlab, tahlil qiladigan axborot tizimi yo‘q. Suv iste’moli va hisob-kitobi esa o‘ta murakkab. Bu borada vazirlik huzurida Suv xo‘jaligini raqamlashtirish markazi tuzilishi, unda suv iste’moli va hisobini yuritishning yagona axborot tizimi ishga tushirilishi juda to‘g‘ri va mutlaqo oqilona qaror bo‘ldi, deb o‘ylaymiz.

Suv resurslaridan ehtiyotkorlik bilan foydalanish — kelajak avlodlar uchun barqaror rivojlanish garovi. O‘zbekiston sharoitida bu qimmatbaho resurs xalqning farovon hayot kechirishi uchun muhim ahamiyat kasb etar ekan, har bir fuqaro suvdan oqilona foydalanishi va uni ifloslanishdan asrashi kerak.

Bugunning gapi

YOQILSA – ZAHAR, ko‘milsa – ozuqa

Yurtimizda atmosfera musaffoligi qonun muhofazasida. Biroq xiyobonlar, madaniyat va istirohat bog‘lari, ta’lim muassasalari, tashkilot, korxona hamda mahallalar atrofida xazon yoqish holati tez-tez uchrab turadi. Tutayotgan xazon va o‘simlikning boshqa qoldiqlari nafaqat dimog‘ingizu ko‘zingizni, balki ko‘nglingizni ham achishtirib yuboradi.

Mutaxassislar hisob-kitobiga ko‘ra, 1 tonna qurigan barg yonganda havoga 9 kilogrammgacha tutun mikrozarrasi ko‘tariladi. Bu mikrozarralar tarkibiga chang, azot oksidi, is gazi, og‘ir metallar hamda dioksin va dioksan kiradi. Mazkur zaharli moddalar inson organizmiga tushgach, immun tizimiga zarar yetkazadi.

— Barglar, shox-shabbalar yoqib yuborilganda hosil bo‘ladigan tutundan nafas olgan aholi salomatligi xavf ostida qolishi tayin. Birinchi o‘rinda o‘pka tizimi zararlanadi, keyin zahar qon orqali butun tanaga tarqaydi va buyrak, jigar, bosh miya hamda asab tizimiga salbiy ta’sir qiladi, — deydi Samarqand viloyati ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi bo‘lim boshlig‘i Baxtiyor Xudoyqulov. — Buning oldini olish maqsadida boshqarmamiz tomonidan joriy yilning o‘tgan davrida atmosferani muhofaza qilish talablariga rioya etmaslik, maxsus texnik qurilmalarni qo‘llamasdan bitum eritish talablarini buzgani uchun fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining uchdan bir qismidan bir barobarigacha, mansabdor shaxslarga esa bir barobaridan uch barobarigacha jarima solishga sabab bo‘luvchi 811 holat aniqlandi. Natijada holat sababchilariga 119 million 721 ming so‘mlik jarima solindi.

Jarima — o‘z yo‘liga. Ular millionlab, milliardlab so‘m bo‘lmasin, tabiatga, inson salomatligiga yetkazilgan zararni qoplay olarmidi?! Shu o‘rinda masalaning boshqa jihati ham bor: xazon yoqish oqibatida tuproq qatlamidagi foydali mikroorganizmlar — chuvalchang, mayda hasharotlar nobud bo‘ladi. Maysalarga o‘t qo‘yilsa, olov juda tez yoyilib, boshqarib bo‘lmas kuchga aylanadi. Xo‘sh, bu holatda qanday yo‘l tutgan afzal?

— Daraxtlardan to‘kiladigan barg chiqindi emas, balki tabiatda oziq modda almashinuvining muhim ishtirokchisidir. Xazon qoldig‘i bilan boyigan tuproqda chuvalchang tez ko‘payadi, chirindi ular uchun ozuqa. Bu jarayonda tuproqning organik tarkibi ham sifat jihatidan yaxshilanadi, — deydi agronom Bobosher Hamroyev. — Xazon tarkibida ko‘p miqdorda azot mavjud bo‘lib, qurigan bargdan hosil bo‘lgan chirindi boshqa tabiiy o‘g‘itlar bilan bellasha oladi. Shu bois, xazondan tayyorlangan o‘g‘itlar hosildorlikni oshirishda ham katta samara beradi. Kuzda to‘kilgan barglar qopga solib qo‘yilsa, qish davomida chorvaga yaxshi ozuqa bo‘ladi. Yerga ko‘milsa, kelgusi bahor uchun foydali o‘g‘it o‘rnini bosadi. Biz ancha yildan beri kuzda maxsus o‘ra qazib, xazonlarni unga ko‘mamiz va ustidan tuproq tortamiz. Bahorda chuqur usti ochilib, tayyor bo‘lgan chirindidan daraxtlarga o‘g‘it sifatida foydalanamiz.

Aslida, tabiat puxta ishlaydigan mexanizmga o‘xshaydi. Daraxtlar, umuman, barcha o‘simlik bahorda unib-o‘sadi, barg yozadi, yozda hosilga kiradi, kuzda esa asta-sekin sarg‘ayib, to‘kiladi va yer bag‘riga singishga intiladi. Kelasi bahorda yana zamindan bosh ko‘tarib chiqadi va hayotini davom ettiradi. Demak, tabiatning mana shu oltin qoidasiga putur yetkazmaslik kerak. Shundagina inson borliq bilan uyg‘un hayot kechira oladi, tabiatdagi muvozanat ham izdan chiqmaydi.

Shuhrat NORMURODOV, jurnalist

2024-yil – Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili

AMUDARYODA SHIJOATLI TADBIRKORLAR KO‘P

Amudaryolik Dildora Hayitboyeva tadbirkorlikni onasi bilan birgalikda non yopishdan boshlagan edi. Bugun u atrofiga 33 kishini jamlagan bir necha zamonaviy ishlab chiqarish subyekti egasi. Ishchilarining aksariyati ijtimoiy himoyaga muhtoj, “Ayollar daftari”dagi mahalladoshlari.

Izlanuvchan va shijoatli tadbirkor Dildora Hayitboyevaning sutni qayta ishlashga ixtisoslashgan “Kamron Gold Media” hamda non va qandolat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi “Ravshanbek-Yulduzxon” xususiy korxonasi ilg‘orlar safida e’tirof etiladi.

— 200 ming dollar imtiyozli kredit hisobiga Xitoydan olib kelingan zamonaviy dastgohlar bilan jihozlangan “Kamron Gold Media” korxonamizda 10 turdan ortiq sut mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda, — deydi Dildora Hayitboyeva. — Kuniga 600 litrdan ko‘proq sut qayta ishlanib, tayyor mahsulotlar tumanimizdagi davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlariga shartnoma asosida yetkazib beriladi.

Tadbirkorning rejalari ko‘p. Tumandagi har bir mahallada sut va non mahsulotlarini hamyonbop narxlarda sotadigan shoxobchalar tashkil etish niyatida. Shuningdek, sariyog‘ ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ymoqchi. Bugun tadbirkorlarning tashabbusi har tomonlama qo‘llab-quvvatlanayotganini inobatga olsak, uning bu loyihalari ro‘yobga chiqishiga ishonch katta.

Mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirish va aholi turmush farovonligini yanada yaxshilashda yangi ishlab chiqarish quvvatlarining ahamiyati nihoyatda muhim. Amudaryo tumanida ham bu borada salmoqli ishlar qilinmoqda. “Nukus dilisha” korxonasining un ishlab chiqarish loyihasi Qoraqalpog‘istondagi eng muhim sanoat tashabbuslaridan biridir. Bu orqali mahalliy un mahsulotlariga bo‘lgan talabni qondirish, yangi ish o‘rinlari yaratish maqsad qilingan. Korxona uchun qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan 1,5 gektar va qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan 40,6 gektar yer to‘g‘ridan to‘g‘ri ajratilgan. Loyihaning umumiy qiymati 11 milliard so‘m bo‘lib, shundan 7,9 milliard so‘mi bank krediti.

— Loyiha to‘liq amalga oshirilgach, mahalliy ehtiyojni qondirish uchun yetarli miqdorda un ishlab chiqariladi. 30 ta yangi ish o‘rni yaratiladi, — deydi korxona rahbari Bahrom Yo‘ldoshev. — Hozir zavod qurilishida 80 foiz ish bajarilgan. G‘alla qabul qilish punktlari to‘liq qurilib, ishlab chiqarish sexini tiklashga kirishilgan. Zarur asbob-uskunalar uchun kredit ajratilgan. Loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun Turkiyadan tajribali mutaxassislar jalb qilingan. Zavod joriy yil oxirida to‘liq ishga tushiriladi.

Tuman iqtisodiy salohiyatini yanada oshiradigan yirik tashabbuslardan yana biri “Amudaryotex” korxonasining o‘simlik yog‘i ishlab chiqarish loyihasidir. Loyiha mahalliy bozorda o‘simlik yog‘iga bo‘lgan talabni qondirishga hissa qo‘shish bilan birga, tuman ahli uchun qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratishga ham xizmat qiladi.

Loyihaning umumiy qiymati 102 milliard so‘mni tashkil etadi. Shundan 3,5 million dollari xorijiy investitsiya sifatida kiritilgan. Korxona to‘la quvvatda yiliga 10 ming tonna o‘simlik yog‘i ishlab chiqarishga mo‘ljallangan bo‘lib, 85 ta doimiy ish o‘rni yaratiladi. Loyiha bo‘yicha qurilish 2020-yil mart oyida boshlangan edi va joriy yilning dekabr oyida to‘liq yakunlanadi. Bu yerdagi ishlab chiqarish jarayoni nafaqat ichki bozor talabini qondiradi, balki eksport salohiyatini oshiradi. Korxona tomonidan yiliga 12 milliard so‘m miqdorida soliq to‘lanishi hisob-kitob qilingan. Shu sababli loyiha ishga tushishi natijasida Amudaryo tumanining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi yanada tezlashadi.

Tumandagi kichik sanoat zonasida faoliyat yuritayotgan, ish boshlaganiga qisqa fursat bo‘lishiga qaramay, ichki bozorda o‘z xaridorlariga ega tadbirkorlik subyektlari talaygina. Jumladan, “Al-kafil biznes plast” korxonasi nafaqat tuman ichki bozorini, balki qo‘shni tumanlar hamda viloyat bozorlarini ham plastmassa mahsulotlari bilan ta’minlab kelmoqda. Bugungi kunda jamiyatda 15 kishi ishlaydi. Korxona 2019-yilda ish boshlagan bo‘lib, hozir faoliyatini tobora rivojlantirib bormoqda. Bu kabi loyihalar tuman iqtisodiyoti va aholi turmush darajasini yaxshilashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Minajatdin QUTLIMURATOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Nuqtayi nazar

Olimjon QAYUMOV, Toshkent amaliy fanlar universiteti professori, filologiya fanlari doktori

JAMIYATIMIZ YAQIN TARIXIDA KORRUPSIYANING TOMIR OTISHI BUTUN XALQIMIZNI, PREZIDENTIMIZNI JIDDIY TASHVISHGA SOLGANI HAM SIR EMAS. DAVLATIMIZ RAHBARINING BIRGINA QARORI BILAN TA’LIM TIZIMIDA XUSUSIY SEKTORNI SHAKLLANTIRISH VA ULUSHINI KO‘PAYTIRISHGA JIDDIY E’TIBOR QARATILISHI MAMLAKAT OLIY TA’LIM TIZIMIDA HALOLLIK TAMOYILINING TABIIY USTUNLIGINI TA’MINLAY BOSHLADI.

O‘ZBEKNING MA’NAVIY INQILOBI

Yurt va xalq istiqboli yo‘lida QANDAY BIRLASHILADI?

Boshlanishi 1-betda

Oliy ta’limda xususiy sektor ulushining paydo bo‘lishi va faoliyat ko‘rsatishi ham ko‘p jihatdan tizimni isloh qilishda, ijtimoiy adolatning tantanasida, talaba jamiyatning istiqbolini belgilovchi shaxs sifatida tan olinishiga, olimlarning tom ma’noda inson sifatida qadr topishi va ulug‘lanishiga olib keldi.

Jamiyatimiz yaqin tarixida korrupsiyaning tomir otishi butun xalqimizni, Prezidentimizni jiddiy tashvishga solgani ham sir emas. Davlatimiz rahbarining birgina qarori bilan ta’lim tizimida xususiy sektorni shakllantirish va ulushini ko‘paytirishga jiddiy e’tibor qaratilishi mamlakat oliy ta’lim tizimida halollik tamoyilining tabiiy ustunligini ta’minlay boshladi.

Nodavlat oliy ta’lim muassasalari ko‘payishi oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida tabiiy, sog‘lom raqobatni yuzaga keltirdi. Bu esa bundan o‘n-o‘n besh yillar oldingi dunyoqarashning eskirganini ko‘rsatmoqda. Ilgari ota-onalar oliy ta’lim muassasalariga farzandlarini o‘qishga qo‘yish uchun turli yo‘llarni axtarib yurardi. Ularning mana shu maslaklari jamiyatimizda korrupsiya, nepotizm singari illatlar tomir otishiga sabab bo‘ldi. Bu ikki illatdan manfaatdorlar turli mavqedagi shaxslar bo‘lib, ular Prezidentimizning adolatli siyosatiga g‘araz ko‘zlari bilan boqib turdi. Sababi — endi bu siyosat oddiy o‘zbek xalqi farzandlarining oliy ma’lumot olishi muammosini to‘la hal qiladigan mexanizm paydo bo‘lishiga asos solgandi. Bu mexanizm nodavlat oliy ta’lim muassasalari ochilishi va erkin faoliyat yuritishining huquqiy asoslarini yaratish, xususiy oliy ta’lim muassasalarining kadrlar tayyorlash jarayonidagi ulushini oshirishdan iborat to‘la adolatga asoslangan jarayon edi.

Endi farzandlarini o‘qitish tashvishidagi ota-onalarga misqollab yiqqan pullarini “o‘rtakash” muttahamlarga yoki xorijiy mamlakatlar oliy ta’lim muassasalariga bermay, o‘z vatanida qonuniy ravishda shartnoma asosida bilim olishga erishish imkoniyatini yaratdi.

Bugun nodavlat oliy ta’lim muassasalari tashkilotchilari professional pedagoglarni, yetakchi olimlarni yaxshigina maosh evaziga ishga taklif qila boshladi. Oliy ta’lim muassasalarida olimlarning ilmiy-ijodiy faoliyati uchun barcha sharoitlar yuqori saviyada tashkil etildi. Nodavlat oliy ta’lim muassasalari moddiy-texnik ta’minoti ham davlat oliy ta’lim muassasalaridagidan ancha yuqori. Nodavlat oliy ta’lim muassasalarida talabalarga yaratilgan sharoitlar yuqoriligi, bilimni baholashning adolatli mezonlar asosida baholash mexanizmi ishga tushirilgan. Professor-o‘qituvchilarning moddiy ta’minoti ularning ortiqcha mablag‘ topishga intilishiga chek qo‘ydi. Natijada professor-o‘qituvchilar ish o‘rni va mavqeini saqlab qolish uchun o‘z ustida ishlashi, shiddat bilan rivojlanib borayotgan jamiyat taraqqiyotidan ortda qolmaslikka harakat qilishini yuzaga keltirdi. Tabiiy ravishda oliy ta’lim korrupsiyadan xoli sohaga aylanib borishini ta’minlay boshladi.

KADRLAR TAYYORLASH SIFATINI TUBDAN YANGILASH MAQSADIDA ABITURIYENTLAR UCHUN O‘TKAZILADIGAN DAVLAT TEST SINOVLARIDA DAVLAT OLIY TA’LIM MUASSASALARI QATORI NODAVLAT OTMLARNI TANLASH IMKONINI HAM YARATISHIMIZ ZARUR. ZERO, TARBIYA VA TA’LIM SIFATI UCHUN MUASSASA MULKCHILIK SHAKLINING HECH QANDAY AHAMIYATI YO‘Q.

Oliy ta’lim tizimida nodavlat sektor ulushi tobora ortib bormoqda. Bu quvonarli hol, albatta. Sababi oliy ma’lumotli kadrlar ko‘lami kengayishi mamlakatning iqtisodiy, ma’naviy salohiyatini yuksaltiruvchi muhim omillardan sanaladi. Miqdorning ortishi sifat o‘zgarishlari bilan uyg‘un bo‘lsagina o‘zini oqlaydi. Bu borada ham yurtimizda asosiy qadamlar tashlandi. Oliy ta’lim muassasalarining kadrlar tayyorlashga qaratilgan faoliyatini jahon talablari asosida tashkil etish, davlat ishtirokida oliy ta’lim sifatini kafolatlash talab etilmoqda.

Bugungi globallashuv jarayonida o‘zbek jamiyati dunyoning ilg‘or mamlakatlari jamiyatlari bilan integratsiyalashmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, xorijlik mutaxassislar kelib dars o‘tishi yo‘lga qo‘yilishi, olimlar reytingini monitoring qilish, birinchidan, ta’lim sifatini oshirishni, ikkinchidan, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini, uchinchidan, ta’lim tizimi korrupsiyadan xoli bo‘lishini, to‘rtinchidan, yoshlarning o‘z istiqboliga ishonchi ortishini, ertadan umidi ko‘payishini ta’minlamoqda.

Bugun xalqimiz yangi O‘zbekistonni barpo qilishga jiddiy bel bog‘lagan. Bu boradagi ezgu amallar talaygina. Yangi o‘zbek jamiyati yangicha dunyoqarashga ega, innovatsion bilimlar va g‘oyalar bilan qurollangan, jahon hamjamiyatida millat o‘rni to‘g‘ri belgilanishiga sababchi bo‘la oladigan bilimli yoshlarni tarbiyalashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Bugun har bir o‘zbek ziyolisi, o‘zbek pedagogi, o‘zbek olimi yuritilayotgan odil siyosatni qo‘llab-quvvatlaydi. Zero, Prezidentimizning oliy ta’limda xususiy sektorni shakllantirish uchun qat’iy qarori tom ma’noda ma’naviy inqilob bo‘ldi.

Oldimizda turgan endigi vazifa nodavlat oliy ta’lim tizimiga vazirliklar va idoralarning ko‘maklashuvini yo‘lga qo‘yish, oliy ta’limdan keyingi ta’lim bosqichini tashkil etishda, malakali ilmiy pedagog kadrlar tayyorlashda nodavlat oliy ta’lim muassasalari tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash, ularning ilmiy salohiyatidan to‘g‘ri foydalanish, nodavlat oliy ta’lim muassasalarida ham ixtisoslik kengashlar tashkil etishga to‘sqinlik emas, balki xayrixohlik qilishni yo‘lga qo‘yishimiz zarur.

Kadrlar tayyorlash sifatini tubdan yangilash maqsadida abituriyentlar uchun o‘tkaziladigan davlat test sinovlarida davlat oliy ta’lim muassasalari qatori nodavlat OTMlarni tanlash imkonini ham yaratishimiz zarur. Zero, tarbiya va ta’lim sifati uchun muassasa mulkchilik shaklining hech qanday ahamiyati yo‘q.

Hozir ahvol qanday? Davlat va nodavlat oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida ko‘rinmas “devor” bor. Bizning galdagi vazifamiz ongimizda shakllanib qolgan ana shu devorni olib tashlash, ta’lim muassasalari o‘rtasida teng huquqli mavqeni ta’minlash, tanlov imkoniyatlarida tarafkashlikni tubdan yo‘qotishga erishishimizdan iborat bo‘lmog‘i kerak. Zero, ta’lim tizimini tubdan isloh qilar ekanmiz, avvalo, xalq va vatan manfaatlaridan kelib chiqib qaror qabul qilishimiz lozim. Biz nima qilsak, xalqimiz istiqboli porloq, vatanimiz ravnaqi ta’minlanadi? Bunday savol har birimizni bezovta qilishi shart. Yurt va xalq istiqboli yo‘lida qalban birlashishimiz zarur.

HOZIR AHVOL QANDAY? DAVLAT VA NODAVLAT OLIY TA’LIM MUASSASALARI O‘RTASIDA KO‘RINMAS “DEVOR” BOR. BIZNING GALDAGI VAZIFAMIZ ONGIMIZDA SHAKLLANIB QOLGAN ANA SHU DEVORNI OLIB TASHLASH, TA’LIM MUASSASALARI O‘RTASIDA TENG HUQUQLI MAVQENI TA’MINLASH, TANLOV IMKONIYATLARIDA TARAFKASHLIKNI TUBDAN YO‘QOTISHGA ERISHISHIMIZDAN IBORAT BO‘LMOG‘I KERAK.

Tibbiyot



BUYRAK KO‘CHIRISH:

AVVAL HAM BO‘LGAN, LEKIN BUNAQASI ILK BOR O‘TKAZILDI

Surxondaryo viloyatida ilk marotaba laparoskopiya usulida buyrak ko‘chirish bilan bog‘liq yuqori texnologiyali jarrohlik amaliyoti o‘tkazildi. Bu kabi amaliyot shu vaqtga qadar an’anaviy usul, ya’ni ochiq kesmalar yordamida bajarilardi. Mazkur kam invazivli laparoskopik amaliyot Akademik V.Vohidov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi xodimlari va mahalliy shifokorlar ishtirokida bo‘lib o‘tdi.

Avvallari poytaxt va viloyat markazlari o‘rtasidagi bog‘lam yaxshi ishlamasligi oqibatida bemorlar sarsongarchiligi ko‘zga tashlanardi. Bugun esa inson salomatligini mustahkamlash, aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini tubdan oshirish, shifo maskanlarining resurs salohiyatini yaxshilash yo‘lidagi izchil islohotlar samarasi o‘laroq bu bog‘lam tub ma’noda mustahkamlandi. Buning natijasida yurtimizning Surxondaryodek olis hududlarida ham yuqori texnologik jarrohlik amaliyotlarini bajarish imkoniyati yaratilmoqda.

— Surxondaryo viloyatida shu kunga qadar laparoskopiya usulida xoletsistektomiya, buyrakdagi kistektomiya, exinokokektomiya va donorlik nefrektomiyasi bilan bog‘liq 60 ga yaqin hamda ochiq kesmalar yordamida 50 dan ortiq buyrak ko‘chirish amaliyoti o‘tkazilgandi. Ammo bu usul yordamida buyrak yetishmovchiligini davolash dastlabkisi bo‘ldi, — deydi Respublika ixtisoslashtirilgan xirurgiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi bo‘lim mudiri, tibbiyot fanlari nomzodi Akrom Ahmedov. — Laparoskopik buyrak ko‘chirib o‘tkazish amaliyoti viloyatning o‘zida, Termiz shahrida ilk bor angorlik Saida Qulsoatovada muvaffaqiyatli o‘tkazildi. Bemorga o‘z onasi donorlik qildi. Hozir ularning salomatligi yaxshi. Nazoratimiz ostida shifo topmoqda.

Oltinsoylik Kamoliddin Berdiyev ham qariyb bir yildirki, buyrak yetishmovchiligidan aziyat chekib keladi. Bugun mutaxassislar uni tekshiruvdan o‘tkazdi va xastalik yuqori texnologiyali, kam invazivli, laparoskopik usulda bartaraf etiladigan bo‘ldi.

— To‘g‘risi, shu kasallik aniqlangach, hayotdan umid uzilib borarkan. Ming kilometr yo‘l bosib poytaxtga borish, u yerda ham hamma muolajalarni yana boshidan boshlashga imkonim yetmasdi. Sog‘lig‘im ham ko‘tarmasdi. Hamkorlikda viloyatning o‘zida buyrak ko‘chirish amaliyotini o‘tkazamiz, deyishganida hayotga qaytgandek bo‘ldim. Shukrki, ahvolim o‘nglanyapti, — deydi Kamoliddin Berdiyev.

Termiz shahrida o‘tkazilgan bu kabi yuqori texnologik jarrohlik amaliyotlari mahalliy mutaxassislarga o‘z bilim va tajribasini oshirishi uchun keng imkoniyat yaratmoqda.

— Avvallari bu kabi amaliyotlar poytaxtda o‘tkazilardi. Tajriba olish uchun muayyan muddat u yerga borib kuzatardik. Bugun shu yerning o‘zida, barcha texnik va texnologik jihozlar bilan ta’minlangan xonalarda operatsiyalar malakali mutaxassislar ishtirokida o‘tkazilmoqda. Bu bizga katta imkoniyatlar eshigini ochmoqda, — deydi transpontolog-urolog Akrom Xudoyberdiyev.

Respublika ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari xodimlari va mahalliy shifokorlar tomonidan Surxondaryo viloyatining bir qancha tumanlarida tug‘ma yurak nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun tibbiy ko‘riklar ham tashkil etilyapti. Jarayonda ko‘rikka kelganlar

exokardiografiya tekshiruvidan o‘tkazilmoqda. Mutaxassislar bemorlarning holatiga qarab, ularga tegishli tibbiy maslahat, ko‘rsatma va yo‘llanmalar bermoqda.

Xirurgiyaning barcha yo‘nalishlarida tibbiy maslahatga muhtoj bemorlarga bu tarzda yordam berilishi, zarur hollarda poytaxtdagi va viloyatdagi mutaxassislar bilan birgalikda jarrohlik operatsiyalari o‘tkazilishi natijasida odamlarning tibbiyot tizimiga munosabati o‘zgarmoqda.

Xalqimiz sog‘lig‘ini mustahkamlashga ustuvor vazifa sifatida qaralib, o‘tgan yillar davomida tumanlarda ham tibbiyot sohasida katta islohotlar amalga oshirilmoqda. Ilg‘or xorijiy yutuqlar o‘rganilib, yetarli tajriba to‘planyapti.

Termiz tumani ahliga jami 9 ta birlamchi tibbiy sanitariya yordami ko‘rsatuvchi 2 ta oilaviy poliklinika, 5 ta oilaviy shifokorlik punkti, 2 ta ko‘p tarmoqli markaziy poliklinika va 1 ta 140 o‘rinli markaziy shifoxona xizmat ko‘rsatib kelmoqda.

Hududdagi tibbiyot birlashmasida 116 shifokor, 853 nafar o‘rta tibbiyot xodimi faoliyat yuritadi. Tumanda yashovchi har 10 ming aholiga nisbatan malakali tibbiyot mutaxassislari bilan ta’minlanganlik darajasi 47 foizni tashkil etmoqda. Navro‘z mahallasida joylashgan 70-oilaviy poliklinika 20 ming yurtdoshimiz istiqomat qiluvchi 5 ta mahallaga tibbiy xizmat ko‘rsatadi.

— Avvallari odamlar poliklinika deganda faqatgina tibbiy daftarcha ochiladigan muassasani ko‘z oldiga keltirardi, — deydi oilaviy poliklinika mudiri O‘g‘iloy Mahmudova. — Bugun poliklinikalarning vazifasi tubdan o‘zgargan. Endi eng chekka hududlardagi poliklinikaga ham aholi o‘zini bezovta qilgan kasalliklarni erta aniqlash, kerakli muolajalarni o‘z vaqtida olish uchun murojaat qilmoqda. Zero, ular zamonaviy shifoxona darajasida kerakli jihozlar bilan ta’minlanib, zarur yo‘nalishlar ochilgan.

Tibbiyot muassasalarini malakali kadrlar bilan ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Termiz shahrida tashkil etilgan Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filialining yuqori bosqich talabalariga ham o‘qib, ham ishlash uchun imkoniyatlar yaratib berilgan. Bu esa ularga nazariyani amaliyot bilan bog‘lashda juda qo‘l kelmoqda.

— Avvallari surxondaryolik qizlar uchun tibbiyot oliygohlariga o‘qish ushalmas orzudek sanalardi. Tibbiyot oliygohi yo‘q edi. Mana, hozir vohaning qizlari ham oq libos kiyib, najot farishtasi bo‘lishni istasa, intilsa, maqsadiga erishishi mumkin. Shu bilan birga, talaba bo‘lganingizdan so‘ng doimiy ravishda tibbiyot markazlarida malakaviy amaliyotlarni o‘tkazishingiz sizga nazariy bilimlarni amaliyotda mustahkamlash imkonini yaratadi, — deydi Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali talabasi Nozanin Yo‘ldosheva.

Salomatlik — insonning birlamchi ehtiyoji. Tibbiyot sohasini yanada rivojlantirish, uni tubdan isloh qilishga qaratilgan sa’y-harakatlar natijasida hududlarda oilaviy poliklinikalar tomonidan ko‘rsatiladigan tibbiy xizmat sifati ham oshyapti. Bu esa sog‘liqni saqlash sohasini yangi bosqichga olib chiqish, ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini yaxshilash va insonlar salomatligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Turkman xalqining buyuk shoiri Maxtumqulining “Sog‘liq qadrini bil, toki xasta bo‘lmasdan burun” degan satrlari bor. Aslida, shunday. Xastalikni davolagandan ko‘ra, uning oldini olgan ma’qul. O‘zida, oilasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirgan insonlar tartibli va vaqtdan unumli foydalanib, umridan mazmun topayotganlar sirasiga kiradi.

Surxondaryoda ham keyingi yillarda ushbu jihatlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zi odatda kimdir ishga borayotganda piyoda yurishni afzal biladi, yana kimdir tong sahardan badantarbiya bilan mashg‘ul bo‘ladi. Yengil yurish inson organizmining umumiy holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Mushaklarni baquvvat qiladi, suyak to‘qimasini mustahkamlaydi, harakatlarni muvofiqlashtirishni rivojlantiradi. Jismoniy faoliyatning bunday turi harakatning eng xavfsizi hisoblanib, uni deyarli har bir kishi bemalol bajarishga qodir.

Abdumalik Eshmurodov Termiz tumanining Xalqobod mahallasida yashaydi. Qahramonimiz 70 yoshda bo‘lishiga qaramay, har kuni tongda 1 soat vaqtini yengil yurish, yugurish va badantarbiya mashqlariga sarflaydi.

— Shu yoshga kirib ham hech bir dardga chalinmadim, — deydi Abdumalik Eshmurodov. — Bor gapki, xastalik kishi irodasini bukib, ertangi kunga bo‘lgan umidini so‘ndiradi. Buni ko‘proq boshidan o‘tkazgan yoki yoshi ulug‘ insonlar yaxshi biladi. Ulardan jismoniy harakat inson salomatligi uchun qanchalik ahamiyatli ekanini so‘rashimiz bilanoq, sog‘lig‘ingizni mustahkamlash uchun jismoniy harakatni kanda qilmang, degan da’vatomuz fikrlarni eshitaman.

Ana shunda xotirjam va farovon hayot kechirgan, ko‘plab asoratli xastaliklarning oldini olgan bo‘lamiz. Shunga monand ravishda amalga oshirilayotgan tibbiy islohotlar ham yurtdoshlarimizning sog‘lom va baxtli umr kechirishidek ezgu maqsadlariga xizmat qilayotgani bilan ahamiyatli.

Sarvar TO‘RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Yoshlarga milliy an’analarimizni o‘rgatish, targ‘ib qilish bilan birga to‘y-ma’rakalarni, odat va udumlarni ixchamlashtirish, bu borada isrofgarchilik va dabdababozlikka yo‘l qo‘ymaslikka alohida e’tibor qaratish kerak.

YANGI O‘ZBEKISTON

2024-yil 15-noyabr, 232-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz

SHAXS TARBIYASI SARI...

Odatga aylanayotgan illatlar, omadini kutayotgan tavakkalchilik

Toshoyna

Sardor TOLLIBOYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Dunyoga o‘z tafakkuri bilan qaray boshlagan inson nima uchun yashayotgani, missiyasi qanday ekani, qilayotgan amallarining to‘g‘ri yoki xatoligini o‘ylashi tabiiy. Shiddatli zamonda inson bajarayotgan amali bilan hisoblashib, qilayotgan ishini tafakkur tarozisidan o‘tkazmasa, “ommaviy madaniyat” ta’siriga tushib qolishi hech gap emas. Bugun chegara bilmas bu “madaniyat” ta’siri ortidan yengil-yelpi hayotni tanlayotgan, faqat o‘zi, erta emas, balki bugun uchungina harakat qilayotgan, yashashdan maqsad topolmayotgan yoshlar borligi xavotirli.

Bunday vaziyatda har bir mamlakat sog‘lom fikrli yoshlar quvvatiga ehtiyoj sezadi. Ya’ni insonning ma’naviy qo‘rg‘oni bo‘lmish qadriyatlarga sodiq, vatani taqdiriga daxldorlik his etib, taraqqiyotga hissa qo‘shadigan yigit-qizlar maydonga chiqishi kerak bo‘ladi. Bunday yoshlarni yuzaga chiqarishdagi yagona qurol ta’lim va tarbiyadir.

“Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim — yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni vaqtda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”, degan edi davlatimiz rahbari.

Bugungi shiddatli, alg‘ov-dalg‘ov zamonda, farovon kelajak sari birinchi qadam yoshlar tarbiyasi bilan tashlanishiga alohida urg‘u berilishi bejiz emas.

Odat emas – ILLAT

Bugun atrofda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga aniq baho berib, rivojlanishning sog‘lom rejasini tuzish mushkul. Boshqalarga qaraganda, 50-60 yil ilgarilab ketgan davlatlar ham ma’naviy inqiroz botqog‘iga botib borayotgani, undan chiqish uchun moddiy imkoniyat, zamonaviy texnologiyalar yechim bo‘la olmasligini ko‘rib, bilib turibmiz. Demak, ilm-fan bilan birga ma’naviy o‘zandan to‘yingan, qadriyatlar asosida suyagi qotgan, vatan taqdiriga daxldor insonlarga zarurat oshib boradi. Chunki shu orqali tobora integratsiyalashayotgan dunyoda o‘z o‘rnimizni belgilab olishimiz mumkin.

Keyingi vaqtlarda bolalar axloqidagi salbiy o‘zgarishlar, ko‘chadagi yengil-yelpi hayotga ko‘nikib borayotgani haqida ko‘p eshityapmiz. Buning aybdorini ham topib qo‘yganmiz — ijtimoiy tarmoqlardagi behayo videolar va “ommaviy madaniyat” ta’siri… Xo‘sh, shunday ham deylik, ammo g‘oyaviy oqimlar ta’sirida ham har tomonlama komil bolalarni yetishtirayotgan insonlar ko‘p-ku! Unda sabab qayerda? Bu savolning javobiga keyinroq to‘xtalamiz.

Abdurauf Fitrat: “Xalqning harakat qilishi, davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo‘lishi, zaif bo‘lib xorlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib e’tibordan qolishi, o‘zgalarga tobe va qul, asir bo‘lishi bolalikdan o‘z ota-onalaridan olgan tarbiyalariga bog‘liq. Bolalar axloqiy tarbiyani muhitdan oladilar, boshqacha aytganda, bolalar suvga o‘xshaydi, suv idishning shaklini olganidek, bolalar ham muhitning odob-axloqini qabul qiladilar”, deydi.

Bolalar — suv, muhit — idishga o‘xshar ekan, biz ulardan kutayotgan odob-axloq muhitini bunyod eta olyapmizmi? Yoki o‘zimiz noliyotgan illatlarga o‘zimiz zamin yaratmayapmizmi?

Bir viloyatga to‘yga bordim. Yozilgan dasturxon, “To‘rga o‘ting”, “Oling, oling” o‘z o‘rnida. Bir vaqt davraga “jon kirgizish” uchun aytilgan ruhi o‘lik so‘zlardan iborat qo‘shiq yangradi. Davraning o‘rtasiga o‘yinchi chiqdi (afsuski, bu kabi ko‘ngilni xira qiladigan holatlar ba’zi joylarda tabiiy qabul qilinar ekan). Bir vaqt odamlar uning atrofida o‘ynab pul qistirdi. Yonimizda o‘tirgan, endi mo‘ylovi sabza urgan bolalar ham bu “an’ana”ni davom ettirdi. Bularni kuzata turib, kun ora yangi “urf-odat” bilan boyiydigan to‘ylarga qachon odamlarning ko‘zi o‘rgangani, uni oddiy qabul qila boshlagani haqida o‘yladim. Qiziq voqea keyin bo‘ldi. Odatda qishloq joylarda ayollar to‘yga bolalarini ham yetaklab boradi. Shundayin bu to‘yxonada bir tomonga ayollarga joy qilingan. Ular o‘tirgan o‘rindiqlar atrofida bolalar o‘ynab yuribdi. Bir vaqt o‘yinchi atrofida o‘sha ayollar gir aylanib, pul qistira boshladi. Onalarning harakatini xotirasiga muhrlayotgan bolalar bu manzarani ko‘z yummasdan tomosha qildi...

Qush uyasida ko‘rganini qiladi, deyishadi. Hali odamni kamolga yetkazadigan tushunchalardan yoki uni tanazzul botqog‘iga tortib ketadigan illatlardan bexabar bola ertaga otasi yo onasi qilgan ishni takrorlamasligiga kim kafolat beradi?

Nomus Sharq xalqlarida jon masalasi kabi ulug‘langan tuyg‘udir. Bu tuyg‘uning ulug‘ligi bolalarga nafaqat qon bilan kirgan, balki muhit orqali ham singdirilgan. Ota-onaning hayotiy tajribasi — bir-biriga hurmati, sadoqati, hamfikrligi, imoni, insofi, mehnatsevarligi, oilaparvarligi, eng muhimi, axloqiy jihatlari farzandlar uchun kamolot maktabi bo‘lgan. Bu maktabda bolalar bir umr e’tiqodiga sobit bo‘lib tarbiyalangan. Farzand ota-onaning amallari orqali ibrat mohiyatini anglaydi. So‘ng shu e’tiqoddan kelib chiqib hayoti davomida xayrli ishlarga qo‘l uradi. Shu kabi mahallada, ko‘cha-ko‘yda, boshqa jamoat joylarida yoshi katta insonlar o‘zlari bilib-bilmay yoshlarga qaysidir jihatdan ibrat bo‘lishi mumkin.

Endi yuqorida boshlagan mulohazani davom ettirsam. Yoshlarning xulq-atvori buzilishiga nafaqat “ommaviy madaniyat”, balki bosh omil bo‘lmish muhit, odamlar o‘ylab topgan urf-odatlar ta’siri kuchliroq bo‘lyapti, nazdimda.

“Tirikchilik uchun bitta ustara va bitta qayroq kifoya…”

Bolani yomon yo‘ldan qaytarish, ular jamiyatda o‘rnini topishida qattiqqo‘llik yagona yechim deb biladiganlar ham yo‘q emas. Bolalar orzusini aytganida: “Odam bo‘lmaysan”, “Otang kim edi-yu, sen kim bo‘larding?!”, “Qachon boshqalarning bolasiga o‘xshab pul topasan…” kabi qistov va malomatlar bilan o‘dag‘aylaydigan ota-onalar topiladi. Bu qattiqqo‘llik qaysidir joyda qo‘l kelishi mumkin. Ammo ko‘pincha bolalarning ruhiyatini sindiradi.

Shunday qattiqqo‘llik ayrim yoshlarni tirikchilik tashvishiga ko‘mib qo‘yayotgani bor gap. Abdulla Qahhor aytganidek: “Tirikchilik — o‘lmasdan, tuproq tashqarisida yurish degan so‘z. Tirikchilik uchun bitta ustara bilan bitta qayroq ham kifoya qiladi…”. Ba’zida arzimagan yumushlar ortidan bolalarni kun o‘targa yashashga o‘rgatib qo‘ygandekmiz.

Bolaning qornini to‘ydirish, ust-boshini but qilish bilan ota-ona farzand oldida o‘z burchimni bajardim deb aytishi o‘rinli emas. Millatni yemiruvchi ming turli ajnabiy illatlar poygasida ota-ona qorin to‘yishidan balandroq dunyoqarashga ega bo‘lishi kerak. Bu borada hammaga birdek hukm o‘qib, adolatning ko‘chasidan olib o‘tishdan yiroqmiz.

Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarni kuzata turib, bir voqeaga ko‘zim tushdi. Ovqatlanish poygasi. “Agar ikki kilo somsani 15 daqiqada yeb bersangiz, somsa tekin bo‘ladi”, shu kabi boshqa turli ovqatlarda o‘z kuchini sinayotganlar ko‘payib borayotgani, uni tomosha qilayotib, o‘zining kuchini ham sinab ko‘rish istagi uyg‘onayotganlar kam emasdek. Hamma narsadan illat qidirish yaxshi emas, deysizmi? Albatta, yaxshi emas. Axir har kimga ovqatlanish huquqi berilgan. Meni o‘ylantirayotgan jihat — bu kabi yengil-yelpi tomoshalar poygaga aylanayotgani. Avvalo, qayerdagi bir blogerning “layk” yig‘ishi, qaysidir yemakxonaning reklamasini kuchaytirib berishdan inson sog‘lig‘i ustun emasmi?!

Bugun jahon sahnida qurol-yaroqlar emas, balki g‘oyalar o‘z kuchini ko‘rsatmoqda. Yot g‘oyalarga qarshi milliy mafkura bilan qurollangan jamiyatlargina tashqi ta’sirlardan bolalarning ongu ruhini saqlab qolmoqda. Milliy mafkura qorin g‘amidan balandroq. “Millatni zaiflashtiruvchi, turg‘unlikka — tanazzulga olib boruvchi omil g‘oyasizlik, maqsadsizlikdir. Tarix necha martalab aqlu iste’dodiga qoyil bo‘lgan Sharq xalqlari nega bunday zalolatga botdi?.. Sababi — g‘oyasizlik.

...Ular yolg‘iz shu kunning, shu daqiqaning manfaati, qorinni to‘qlab olish manfaati bilan yashaydi va hozirgidan bir necha marta yaxshiroq ishlamoq va yashamoq mumkinligini bilmaydi.

“Bizda tushni ta’bir qiluvchi risolalar, gul va bulbul haqidagi qo‘shiqlar, o‘zi bir qarich, soqoli qirq qarich polvon haqidagi kitoblar ko‘p, ammo miyamizni qoplab olgan jaholatni tarqatuvchi, ahvolimizni tushuntirib berguvchi, taraqqiyot, kelajak xususida o‘ylashga, oldinga intilishga majbur etadigan biror kitob yo‘q. Shunday ekan, maorifga, taraqqiyotga intilishni o‘z oldimizga vazifa va orzu qilib qo‘ymoq kerak emasmi?!” degan edi adabiyotshunos Begali Qosimov.

Omadning oyog‘i bo‘lmaydi

Odatda qishloq haqida gap ketsa, qadriyatlar, mehr-oqibat nisbatan saqlanib qolgan joy tushuniladi. Bunga aksariyatimiz guvoh bo‘lganmiz. Sodda odamlarning dilkash suhbati bilan ulg‘aygan bolaning ruhiy olami toza bo‘ladi. Aksariyat hududlarda bugungacha saqlanib kelayotgan baxshilarning xalqona aytimlari bilan ulg‘aygan bolaning tafakkur olami, milliy qiyofasiga “ommaviy madaniyat” ta’sir o‘tkazishi anchayin qiyin masala.

Ammo qishloq odamlarining dunyoqarashiga ham zamona ta’sir etmoqda. Bir safar qishloqdosh akaning suhbatini oldim. Zavodda ishlab, anchayin o‘zini o‘nglab olgan. Beshta bolasi bor. Uning bolalarini o‘qitish uchun imkoniyati ham yetarli. Gap orasida televizordagi lotereyaga o‘xshash shouning ta’rifini uzoq gapirdi. Oyiga topayotgan pulining yarmini shu shou uchun tikayotganini aytib g‘ururlandi, chamamda. Gap orasida uch yildan beri omadi kelmayotganini ham qo‘shib qo‘ydi. Oyligining yarmi, 3 yil… O‘zimcha hisoblab ko‘rdim. Bemalol ikki farzandining xorijiy tilni o‘rganish uchun ketadigan xarajatini qoplar ekan. U esa hamon yangi mashina yutib olishdan umidvor.

Har kim o‘z mulkiga egalik qilish huquqiga ega. Uni qanday sarflashni ham o‘zi hal qiladi. Ammo bugun bolalar ta’limi, tarbiyasidan “tejalgan” pullar ertaga qora mehnatdan boshqasiga yaramaydiganlar safini kengaytirishdan boshqa nimaga xizmat qiladi?!

Axir bolalik omadning oyog‘i chiqib kelishini kutmaydi. Bejiz bolalikda o‘rganilgan bilim toshga o‘yilgan naqsh kabidir, deyishmaydi. Bugun yurtdoshlarimiz orasida tavakkalchilikka mukkasidan ketganlar kam emas, afsuski. Ular shu pullarni farzand ta’lim-tarbiyasiga sarflasa, deylik, bugun o‘zga davlatga davolanish uchun ketayotgan yurtdoshlarimizni o‘zimizda davolaydigan shifokor yoki boshqa zamonaviy kasb egalari ko‘payadi. Shu orqali ular o‘zi tengqur qanchalab yoshlarni ishli qilishi mumkin.

Bu “omadchilar” hayot sinovlaridan qochib, omadi kelishini kutib yashaydigan, mehnat qilishdan ko‘ra, tavakkalchilik mevasiga ko‘z tikayotgan yoshlar safini ko‘paytirish uchun o‘rnak bo‘layotgandek go‘yo.

Shaxs qani, O‘ZLIK-CHI?

Talabaligimda xorij universitetining filiali biz o‘qiydigan binoga vaqtinchalik ko‘chib keldi. Unda o‘sha davlat yoshlari bilan birga o‘zbeklar ham tahsil olardi. Bir yo‘lakdan yurib, ko‘z ko‘zga tusha boshlagandan so‘ng xorij yoshlari bilan tilmoch orqali suhbatlashib, u davlatning madaniyati, tili va boshqa urf-odatlariga qiziqa boshladik. Bora-bora o‘zimizda o‘qiydigan ba’zi kursdoshlarimiz biz bilan ko‘risha turib, o‘sha tilda so‘zlay boshladi. Oldiniga til o‘rganishga havasdan, deya o‘yladik. Ammo… O‘zi tanlab kirgan yo‘nalishining zo‘r mutaxassisi bo‘lib, tug‘ilib o‘sgan viloyatiga qaytib borishni ko‘zlab yurgan kursdoshlarimizning ba’zilari o‘sha davlatda mo‘maygina pul topish mumkinligini eshitib, ketish rejasini tuzishga kirishdi. Ular olti oy turgan bo‘lsa, bu vaqt ichida ajnabiylarning qadriyatlarimizga umuman, to‘g‘ri kelmaydigan bayramlarini nishonlagan o‘zbek yoshlarini ko‘rdim. Ha, ular yot madaniyat ta’siriga sho‘ng‘ib ketgan edi. Hatto ko‘cha-ko‘yda yuzlariga allambalolar chizib, hayosizlikni madaniyat, deya targ‘ib qilganlarini ko‘rib odamning nomusi qo‘zg‘aldi. Ularning muddaosi vatanida turib, o‘zga vatanning og‘ushiga tushish bo‘lib qolgandi.

Bugun o‘sha kursdoshlarimning qaysidiri xorijga ketgandir. Balki mo‘maygina pul ham topayotgandir. Ammo yo‘qotish-chi?.. Insonning shaxs ekanini pasport tasdiqlaydi. Unda shaxsning millati, vatani ko‘rsatiladi.

Ammo haqiqiy shaxslik hujjat bilangina o‘lchanmaydi…

Odamning tirikligini — shaxs ekanining birinchi belgisi uning milliy qadriyatlarga qanchalik sodiqligi. Moddiy o‘lchovlarni vatan tuyg‘usi bilan solishtirishdan yiroq insonlar kamolga yetishishida tarbiyaning ahamiyati, ota-onaning o‘rni katta.

Maqolamizdan ko‘zlangan maqsad tarbiyaga yuzaki qaramasdan, uning katta bir ilm ekanini yana bir bor eslatishdir. Biz ko‘targan muammolarning asl sabablari jamiyatimizda ildiz otayotgan illatlar va ularning ta’sirida shakllanayotgan muhit va uning oldini olish haqida.

Yoshlarga milliy an’analarimizni o‘rgatish, targ‘ib qilish bilan birga to‘y-ma’rakalarni, odat va udumlarni ixchamlashtirish, bu borada isrofgarchilik va dabdababozlikka yo‘l qo‘ymaslikka alohida e’tibor qaratish kerak. Sababi bu urf-odatlar oilada bo‘ladi. Har bir oilaviy an’ana va udum mafkuraviy tarbiyaning muhim yo‘nalishi hisoblanadi.

O‘zbek oilasi uchun muqaddas sanalgan qadriyatlarga sodiqlik, yoshi ulug‘ kishilarga hurmat, o‘zaro bag‘rikenglik, farzandiga to‘g‘ri tarbiya berish, or va nomusni eng ulug‘ tuyg‘u darajasida ushlash sog‘lom mafkuraviy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu muhit esa yoshlarning orzu-istaklariga qanot bag‘ishlaydi.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Kolorpak” MCHJ mas’ul.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 4006.
41157 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolorpak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O‘zbekiston, 100060.
Toshkent, Yangi shahar ko‘chasi, 1-A uy.
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Iroda Toshmatova
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33 Devonxona va e’lonlar: (71) 233-70-98 E-mail: info@yuz.uz Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

O‘zA yakuni — 21:40 Topshirildi — 23:35